	Grammatik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Kommunikativ vaziyatlarda murakkab grammatik va sintaktik strukturalarni ishlata oladi. - Mos bog‘lovchi so‘zlarni qo‘llay oladi. - O‘z sohalariga oid diskurs modellarining grammatik, leksik va mazmun jihatdan qanday tuzilganini tushunish maqsadida tahlil qila oladi.

CHET TILI BO‘YICHA C1 DARAJA UCHUN TA’LIM MAZMUNI

Kompetensiyalar	Ta’lim mazmuni
Mavzular	<p>Kundalik hayotga oid mavzular (masalan, parhez saqlash, farzandlar tarbiyasi va hokazo).</p> <p>Keng ijtimoiy mavzular (masalan, tibbiyot, ilm-fan va texnologiyalardagi etika masalalari, ijtimoiy masalalar, yoshlarning jinoyat sodir etishi, umumijtimoiy majburiyatlar va hokazo).</p> <p>Ijtimoiy-madaniy mavzular (masalan, madaniy muhitga moslashishdagi o‘zga madaniyatni to‘g‘ri talqin etishdagi ehtiyotkorlik, madaniy shok, ijtimoiy tafovutlar, madaniy o‘zlikni saqlab qolish, turli doiralarda o‘zini madaniy muhitga mos tarzda tutish, o‘quv materiallarini yaratish jarayonida madaniyatni talqin etish masalalariga alohida e’tibor qaratish va hokazo).</p> <p>Kasbiy yo‘naltirilgan mavzular: lingvistika va sostiolingvistika muammolari, tilni o‘rgatish va tilni o‘rganish va hokazo.</p>

		<ul style="list-style-type: none"> - Keng qamrovli mavhum va murakkab mavzudagi matnlarni tushunish. - Keng ko‘lamdagи idioma va iboralari og‘zaki nutq namunalariга boy audio tasmalar, axborot va ommaviy e’lonlar (masalan, temir yo‘l vokzali, sport maydonchasiдagi e’lonlar va hokazo). - Guruh muhokamasidagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab muloqot. - Teledastur va filmlar. - O‘rganilayotgan til sohibi bo‘lgan va bo‘lmagan so‘zlashuvchilarning turli rasmiy va norasmiy joylardagi yoki ta’lim muassasalaridagi autentik og‘zaki nutq namunalari. - Sohaga oid ma’ruzalar, muhokamalar va munozaralar. - O‘rganilayotgan til vositasida auditoriyadagi muloqot.
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	<p>Og‘zaki muloqot (dialogik nutq).</p> <ul style="list-style-type: none"> - Shaxslararo muloqot va suhbatlar. - Ommaviy munozaralar va rasmiy muhokama. - O‘z mutaxassislik sohasiga oid bo‘lgan yoki bo‘lmagan mavhum va murakkab mavzulardagi nutqlar va muloqotlar.-- Ishga qabul qiluvchi yoki ishga kiruvchi sifatida suhbatda qatnashish. - Auditoriyada qo‘llaniladigan iboralar. <p>Og‘zaki monologik nutq.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ko‘rsatmalar. - Taqdimotlar. - Konkret yoki mavhum mavzular bo‘yicha o‘z mulohazasini bildirish va ularni asoslash. - O‘z fikrini asoslangan tarzda bildirish. - Fikrlar, muhokama yoki sohaga oid maqola yuzasidan umumlashgan xulosa chiqarish.
		<ul style="list-style-type: none"> - Ijtimoiy, mutaxassislik yoki ta’lim sohalarida uchrashi mumkin bo‘lgan uzun va murakkab matnlar. - Badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, shuningdek, adabiy jurnallar. - Davriy nashrlar. - Yo‘riqnomalar (qo‘llanmalar, taomnomalar va hokazo). - Reklama materiallari. - Turli ma’lumotnomma shakllari, o‘qituvchi kundaligi, so‘rovnomalar. - Norasmiy xatlar, elektron xatlar va hokazo. - Memorandumlar, ma’ruzalar, tanqidiy tahlillar, ish qog‘ozlari.

		Yozish	<ul style="list-style-type: none"> - Maqolalar. - Ta’lim materiallari uchun ko‘rsatmalar. - Ma’lumotnomma shakllari va so‘rovnomalar. - Biznes va mutaxassislikka doir xatlar. - Insholar, ma’ruzalar, tahlillar, taqrizlar. - Bitiruv malakaviy ishi. - Rezyume, yo‘llanmalar.
Til kompetensiyasi	Leksičk kompetensiya		<ul style="list-style-type: none"> - Keng ko‘lamdagi so‘z boyligi, idiomatik va og‘zaki nutq iboralari. - Mutaxassislikka oid (chet tili o‘qitish va amaliy tilshunoslik) atamalarini o‘zbek, rus va o‘rganilayotgan til vositasida qiyoslash va taqqoslash.
	Grammatik kompetensiya		<ul style="list-style-type: none"> - Kommunikativ kompetensianing asosiy qismi bo‘lgan mazmunini yoritib beruvchi murakkab gaplar. - Grammatik elementlar, kategoriyalar, strukturalar va jarayonlarni o‘z ichiga olgan grammatik semantika. - Diskurs darajasidagi grammatika.
Sostiolingvistik kompetensiya			<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyatlari misolida madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib etish va uning til bilan bog‘liq masalalari, jumladan, salomlashish, murojaat shakllari, xushmuomalalik jihatlari va hokazo. - Turli madaniyatdagи kommunikastiyaning noverbal elementlari: xatti-harakatlar, imo-ishoralar ustida ishlashni davom ettirish.
Pragmatik kompetensiya			<ul style="list-style-type: none"> - Taqdimotlar qilish mahoratini yanada takomillashtirish. - Fikrlarni mos tarzda og‘zaki va yozma nutqda bog‘lash. - Turli ijtimoiy, ta’lim va mutaxassislik doiralarida mos ravishda tilni maqbul rasmiylik darajasida qo‘llashni anglab etish. - Muloqot jarayonidagi nutqni bo‘lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tiklash, to‘ldirish strategiyalari va hokazo.

**CHE TILI BO‘YICHA C1 DARAJA BITIRUVCHILARI
TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

Kompetensiyalar	Bilish va bajara olish
Lingvistik kompetensiya Nutqiy kompetensiya	<p>Tinglab tushunish</p> <ul style="list-style-type: none"> - O‘z mutaxassislik sohalariga oid bo‘limgan mavhum va murakkab mavzulardagi keng ko‘lamli nutq namunalarini ayrim noaniq jihatlarini oydinlashtirib olish zarurati tug‘ilsa, so‘zlovchining talaffuzi noaniq yoki til shevasi notanish bo‘lgan hollarda ham tushuna olish. - Keng ko‘lamdagagi idiomatik va og‘zaki nutq iboralarini farqlay olish va ijtimoiy muhitga mos tarzda tilda berilgan diskurs xususiyatini tushuna olish. - Keng ko‘lamli nutqlarni aniq tuzilmagan hollarda ham tushunish va ulardagi ochiq-oydin va yashirin fikrlarni ham etarli darajada anglay olish. - Muhokama va debatlardagi boshlovchi va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab muloqot jarayonida, mavzular mavhum yoki notanish bo‘lsa ham, osonlik bilan tushunish va kuzata olish. - Keng qamrovli, tilning ayrim nostandard ishlatilish hollarini ham o‘z ichiga olgan audio tasma va axborot materiallarini tushuna olish va so‘zlovchilar o‘rtasidagi nozik tafsilotlar va munosabatlarning muhim jihatlarini aniqlay olish. - Filmlardagi sleng va idiomatik iboralarning ishlatilishini aksariyat qismini tushuna olish. - Shovqinda ham ommaviy e’lonlar (masalan, temir yo‘l vokzali, sport maydonchasidagi e’lonlar)ni o‘qib tegishli ma’lumot ola bilish.
	<p>Og‘zaki muloqot (dialog).</p> <ul style="list-style-type: none"> - O‘z fikrini deyarli qiyinchiliksiz, ravon, erkin va spontan ravishda bildira olish. Keng ko‘lamli leksik boylikka ega bo‘lgan holda so‘zamollik bilan muloqotdagi bo‘shliqlarni to‘ldira olish. - O‘z mutaxassislik sohalariga oid bo‘limgan mavhum va murakkab mavzulardagi keng ko‘lamli nutqlarni etarli darajada oydinlashtirib olish zarurati tug‘ilgan holda so‘zlovchining talaffuzi noaniq yoki til shevasi notanish bo‘lgan hollarda ham batafsil tushuna olish. - Ishga qabul qiluvchi yoki ishga kiruvchi sifatida suhbatda qatnashish jarayonida hech qanday ko‘maksiz fikrini kengaytirib, ravon tarzda ifodalay olish, tegishli til vositalaridan unumli foydalana olish. - Mavhum, murakkab va notanish mavzulardagi munozaralarda ham qatnasha olish.

		<ul style="list-style-type: none"> - O‘z rasmiy nuqtai nazarini ishonch bilan ilgari surgan holda, qarshi tomonning bir qator murakkab savol va sharhlariga mos ravishda ravon va spontan tarzda javob bera olish. <p>Og‘zaki monologik nutq.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Turli mavzularni uyg‘unlashtirgan holda to‘liq tasviriy yoki hikoyaviy tarzda fikrlarni alohida jihatlarga urg‘u bergen holda bayon etish va mos ravishda yakunlab, xulosa qila olish.
	O‘qish	<ul style="list-style-type: none"> - O‘z mutaxassislik sohalariga oid yoki oid bo‘lmagan birmuncha uzun va murakkab matnlarni qiyin joylarini qayta o‘qish imkoniyati berilgan holatda bat afsil tushuna olish. - Lug‘atdan foydalanib, har qanday turdag'i xatlarni tushuna olish. - Ijtimoiy, mutaxassislik yoki ta’lim sohalarida uchrash ehtimoli bo‘lgan keng ko‘lamdagi uzun va murakkab matnlar (masalan, sohaga oid maqolalar, kitob boblari, sharhlar)ni bat afsil tushuna olish va ulardagi kichik detallarning ham muhim jihatlari, qarashlar, ochiq-oydin va yashirin fikrlarni aniqlay olish. - Websayt yoki jurnallardan o‘z mutaxassislik sohalariga oid tegishli tafsilotlarni ola bilish.
	Yozish	<ul style="list-style-type: none"> - Murakkab mavzulardagi matnlarni birlamchi masalalarga urg‘u bergen va ikkilamchi masalalarni yetarli tarzda kengaytirgan holda yorita olish, asosli va o‘rinli misollar keltira olish hamda mos ravishda yakunlab, xulosa yoza olish. - Aniq, bat afsil, yaxshi tuzilgan tasviriy hamda ijodiy taraf dan mukammal, tabiiy va o‘z uslubiga ega, ma’lum o‘quvchiga ko‘zlangan matnlar yoza olish. - Aniq, yaxshi tuzilgan, asosiy masalalarga urg‘u bergen holda (masalan, bitiruv malakaviy ishida) murakkab tushunchalarning talqinini yoza olish. - O‘z fikrini kengaytirib, qo‘s himcha fikrlar, dalillar va maqbul misollar bilan yorita olish. - Shaxsiy mazmundagi turli matnlar (kundaliklar, o‘tgan hodisalar tahlili)ni o‘ziga xos uslubda yoza olish. - Ma’ruza, maqola va muhokamalar xulosalarini yoza olish. - Mutaxassislik va ta’limga oid tahlillar yoza olish.
Til kompetensiyasi	Fonetik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Intonastiyani o‘zgartirish va gap urg‘usini to‘g‘ri qo‘yish orqali mazmunning turlicha talqinini ifodalay olish.

		Leksik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Keng ko‘lamli so‘z boyligiga ega bo‘lgan holda muloqotdagi bo‘shliqlarni to‘ldira olish (kam hollarda zarur iboralarni topa olmaslik yoki o‘zini muloqotdan olib qochish strategiyalarini qo‘llash). - Idiomatik va og‘zaki nutq iboralarini qo‘llay olish. - Ayrim kichik xatolardan istisno tarzda jiddiy leksik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik. - Mutaxassislikka oid (chet tili o‘qitish va amaliy tilshunoslik) o‘rganilayotgan chet tilidagi atamalarni yaxshi tushunib, qo‘llay olish.
		Grammatik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Muntazam ravishda grammatik jihatdan to‘g‘ri va xatolardan birmuncha holi fikrlarni qo‘llay olish.

CHET TILI BO‘YICHA C1 DARAJA UCHUN TA’LIM MAZMUNI

Kompetensiyalar	Ta’lim mazmuni		
Mavzular	<p>Global muammolarga oid mavzular (masalan, zamonaviy texnologiyalar va ularning insoniyatga ta’siri, globallashuv, migrastiya, ekologiya, terrorizm, ishsizlik va hokazo).</p> <p>Ijtimoiy mavzular (masalan, tevarak-atrof bilan ijtimoiy munosabatlар, jins masalalari, ijtimoiy tenglik, madaniy qadriyatlar, tolerantlik va hokazo).</p> <p>Kasbga oid mavzular (masalan, kasbiy faoliyat turlari (tarjimon yoki o‘qituvchining kundalik faoliyati va hokazo), malaka oshirish, kasb etikasi va hokazo).</p> <p>Ta’limga oid mavzular (uzluksiz ta’lim, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, magistratura bo‘limida o‘qish va hokazo).</p> <p>Ilmiy tadqiqotga oid mavzular (xalqaro loyihalar, ilmiy tadqiqot etikasi, intellektual boylik, rahbarlik va boshqaruv, mualliflik huquqi)</p>		
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	Tinglab tushunish	<ul style="list-style-type: none"> - Keng qamrovli mavhum va murakkab mavzulardagi matnlar. - Keng ko‘lamdagи idiomatik iboralar va og‘zaki nutq namunalariga boy audio tasmalar, axborot va ommaviy e’lonlar (masalan, temir yo‘l vokzali, sport maydonchasidagi e’lonlar). - Guruh muhokamasidagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab muloqot. - Teledastur va filmlar. - O‘rganilayotgan til sohibi bo‘lgan va bo‘lmagan so‘zlashuvchilarning turli rasmiy va norasmiy doiralardagi

		<p>yoki ta’lim muassasalaridagi autentik og‘zaki nutq namunalari.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Sohaga oid ma’ruzalar, babs-munozaralar.
	Gapirish	<p>Og‘zaki muloqot (dialogik nutq).</p> <ul style="list-style-type: none"> - Shaxslararo muloqot va suhbatlar. - Ommaviy munozaralar va rasmiy muhokama. - O‘z mutaxassislik sohasiga oid bo‘lмаган mavhum va murakkab mavzulardagi ma’ruzalar va muloqotlar. - Ishga qabul qiluvchi yoki ishga kiruvchi sifatida intervyyuda qatnashish. - Auditoriyada qo‘llaniladigan iboralar. <p>Og‘zaki monologik nutq.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ko‘rsatmalar. - Taqdimotlar. - Konkret yoki mavhum mavzular bo‘yicha o‘z mulohazasini bildirish va uni asoslay olish. - O‘z fikrini asoslangan tarzda ifoda etish. - Fikrlar, muhokama yoki sohaga oid maqola yuzasidan umumlashgan xulosa chiqarish.
	O‘qish	<ul style="list-style-type: none"> - Ijtimoiy, mutaxassislik yoki ta’lim sohalarida uchrash ehtimoli bo‘lgan birmuncha uzun va murakkab matnlar. - Badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, shuningdek, adabiy jurnallar. - Gazeta va jurnallar. - Yo‘riqnomalar (qo‘llanmalar, taomnoma kitoblari va hokazo). - Reklama materiallari. - Turli ma’lumotnomma shakllari, o‘qituvchi kundaligi, so‘rovnomalar. - Rasmiy xatlar, elektron xatlar va hokazo. Memorandumlar, ma’ruzalar, tanqidiy bayonotlar/maqolalar, ilmiy ishlar.
	Yozish	<ul style="list-style-type: none"> - Ma’lumotnomma shakllari va so‘rovnomalar. - Ish va mutaxassislikka doir xatlar. - Mavzu tanlash bayonoti. - Rezyume. - Tezis. - Mini-dissertastiya. - Tahlillar. - Ma’ruzalar. - Insholar. - Grant va stipendiyalar uchun taklif va mulohazalar. - Rasmiy hujjalalar (shartnomalar, bitimlar).

		Leksik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Yuqorida qayd etilgan mavzularga oid leksika. - Ta’lim va mutaxassislikka oid leksika. - So‘z yasash modellari. - Qisqartmalar. - Nuqtai nazar va qarashlarni ifodalovchi so‘z va iboralar.
		Grammatik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Ixtisoslashgan matnlardagi grammatik strukturalar (masalan, ilmiy inshoda majhul nisbatning qo‘llanilishi). - Diskurs namunalari (masalan, grammatik, leksik yoki mazmun jihatdan bog‘lanish). - Bog‘lovchilar. - Artikl va belgilovchilar (determinantlar).
Sostiolingvistik kompetensiya			<ul style="list-style-type: none"> - Tilning madaniyat jihatlari (masalan, idiomalar, maqollar va hokazo). - Xulq-atvor, o‘zini tutish va etiket qoidalari. - Noverbal kommunikastiya vositalari. - Ijtimoiy va ilmiy doiraga xos tarzda tilni moslashtirish. - Madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib etish. - O‘zga millat vakillariga nisbatan hurmat va tolerantlik. - O‘zga madaniyat va turli vaziyatlarga moslashish.
Pragmatik kompetensiya			<ul style="list-style-type: none"> - Nutqni tushunish, talqin etish va so‘zlashdagi tegishli strategiya va uslublar. - Turli diskurslar tarkibi va mazmunini bilish. - Muloqtdagi bo‘shliqlarning oldini olish maqsadida til kamchiliklarini bartaraf etish. - Rasmiy va norasmiy doiralarda nutqni bo‘lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tuzatish, to‘ldirish va hokazo strategiyalar.

CHEZ TILI BO‘YICHA C1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kompetensiyalar		Bilish va bajara olish
Lingvistik kompetensiya	Nutqiy kompetensiya	<p>Tinglab tushunish</p> <ul style="list-style-type: none"> - O‘z mutaxassislik sohalariga oid bo‘lmagan abstrakt va murakkab mavzulardagi keng ko‘lamli nutqlarni ayrim jihatlarini oydinlashtirib olish zarurati tug‘ilsa, ayniqsa, so‘zlovchining talaffuzi noaniq yoki til dialekti notanish bo‘lgan hollarda ham tushuna olish. - Keng ko‘lamdagи idiomatik va og‘zaki nutq iboralarini farqlay olish va ijtimoiy muhitga mos tarzda tilning o‘zgarish xususiyatini tushuna olish. - Keng ko‘lamli nutqlarni aniq tuzilmagan hollarida ham tushunish va ulardagi ochiq-oydin va yashirin fikrlarni ham etarli darajada anglay olish. - Muhokama va debatlardagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o‘rtasidagi murakkab muloqotni,

		<p>mavzular birmuncha mavhum yoki notanish bo‘lgan hollarda ham osonlik bilan tushungan ravishda kuzata olish.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Keng qamrovli, tilning ayrim nostandard ishlatilish hollarini ham o‘z ichiga olgan audio tasma va axborot materiallarini tushuna olish va so‘zlovchilar o‘rtasidagi birmuncha yashirin qarashlar va munosabatlar, kichik detallarning ham muhim jihatlarini aniqlay olish. - Filmlarni sleng va idiomatik iboralarning ishlatilish hollarining aksar qismini tushungan holda kuzata olish. - Sifat jihatdan birmuncha yomon, ovoz eshitilishi noaniqroq bo‘lgan ommaviy e’lonlardan (masalan, temir yo‘l vokzali, sport maydonchasidagi e’lonlar) tegishli ma’lumot ola bilish.
--	--	--

		O'qish	<p>Og‘zaki muloqot (dialogik nutq).</p> <ul style="list-style-type: none"> - Ilmiy va sohaga oid konferensiya, davra suhbatlari, munozara (jonli yoki vositali)larda muloqotni boshlash, olib borish va yakunlay bilish. - Fikrlarni aniq ifodalagan holda muhokamalarda faol qatnasha olish. - Vaziyatga mos tarzda tilni moslashtira olish. - O‘z rasmiy nuqtai nazarini ishonch bilan ilgari surgan holda qarshi tomonning bir qator murakkab savol va sharhlariga mos ravishda ravon va spontan tarzda javob bera olish. - Seminar va muhokamalarda so‘rash, oydinlik kiritish, nutqni bo‘lish va to‘ldirish strategiyalarini mos ravishda qo‘llay olish.Og‘zaki monologik nutq. - Sohaga oid mavzular bo‘yicha prezентasiya va ma’ruzalar qila olish. - Obyekt, subyekt, vaziyat va hodisalarni batafsil tasvirlay olish. - Ma’ruza, muhokama yoki maqolaga to‘g‘ri va ravon tarzda xulosa qila olish. - Ilmiy nuqtai nazar yoki fikrni rivojlantirish, dalillar keltirish orqali asoslay olish. - O‘z mutaxassislik sohalariga oid yoki oid bo‘lmagan keng ko‘lamli birmuncha uzun va murakkab matnlarni uslubiy jihatlari, ochiq oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni aniqlagan holda tushuna olish. - Kichik detallarning ham muhim jihatlari, qarashlar, ochiq-oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni ham aniqlay olish. - O‘z mutaxassislik sohalariga oid veb-sayt yoki jurnallardan tegishli tafsilotlarni ola bilish
--	--	--------	---

	Yozish	<ul style="list-style-type: none"> - Barcha turdag'i xatlarni yoza bilish. - Barcha turdag'i insholarni yoza olish. - Tanlagan mavzulari bo'yicha magistrlik ilmiy ishini yoza olish. - Sohaga oid maqolalar yoza bilish. - Sohaga oid va oid bo'lmagan adabiyotlar (maqolalar, kitoblar, malakaviy ish) tahlillarini yoza olish. - Sohaga oid va oid bo'lmagan adabiyotlar (birlamchi va ikkilamchi manbalar)ga annotasiyalar yoza olish. - Turli ilmiy materiallarga xulosa yoza olish. - Tezis va konferensiyada qatnashish uchun taklif va mushohadalarini yoza olish. - Grant va stipendiyalar uchun taklif va arizalar yoza olish.
Til kompetensiyasi	Leksik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Mavzularga oid leksikani va sohaga oid atamalarni ilmiy darajada rivojlantira olish. - So'z yasash modellari asosida so'zlar hosil qila olish.
	Grammatik kompetensiya	<ul style="list-style-type: none"> - Ixtisoslashgan matnlardagi (masalan, tilshunoslik yoki tarjimaga oid) grammatik strukturalarni qo'llay bilish. - Artiklni ilmiy uslubda to'g'ri qo'llay bilish. - Turli matnlarning lingvistik yoki diskurs tahlilini qila olish.

Vazirlar Mahkamasining
2013-yil 8-maydagi 124-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limgan davlat ta'limgan standartida:

a) «Umumiy o'rta ta'limgan davlat ta'limgan standartining tayanch o'quv rejasi» bo'limi va unga ilova qilingan jadval quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«Umumiy o'rta ta'limgan davlat ta'limgan standartining tayanch o'quv rejasi»

Umumiy o'rta ta'limgan muassasalari uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'limgan standartining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limgan sohalarini me'yorlashga asos bo'ladigan davlat hujjatidir (jadval). Tayanch o'quv rejasi o'quv fani bo'yicha beriladigan ta'limgan mazmunini o'quvchiga etkazish uchun ajratilgan o'quv soatlarining eng kam hajmdagi miqdorini ifodalaydi. U har bir sinfda muayyan o'quv fani bo'yicha

davlat ta’lim standartlariga muvofiq beriladigan ta’lim mazmunini aniqlashga asos bo‘ladi:

T/r	O‘quv fanlari	Sinflar									Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
	Davlat ixtiyoridagi soatlar	22	24	26	26	30	32	33	34	35	262
1.	Ona tili va adabiyot	8	8	10	10	9	7	5	5	5	67
2.	O‘zbek tili/rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	16
3.	Chet tili*	2	2	2	2	3	3	3	3	3	23
4.	Tarix					2	2	3	3	3	13
5.	Davlat va huquq asoslari								1	1	2
6.	Iqtisodiy bilim asoslari								1	1	2
7.	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	45
8.	Informatika								1	2	3
9.	Fizika						2	2	2	2	8
10.	Kimyo							2	2	2	6
11.	Biologiya					1	2	2	2	2	9
12.	Tabiiyot va geografiya	1	1	1	1	1	2	2	2	2	13
13.	Odobnoma	1	1	1	1						4
	Vatan tuyg‘usi					1	1				2
	Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari								1	1	3
14.	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1			7
15.	Tasviriy san’at	1	1	1	1	1	1	1			7
16.	Chizmachilik								1	1	2
17.	Mehnat	1	1	1	1	2	2	2	1	1	12
18.	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	18
	Maktab ixtiyoridagi soatlar	0,5				0,5	0,5	1	0,5	2	5
	Umumiy soatlar	22, 5	24	26	26	30,5	32,5	34	34,5	37	267
	Amaliy mehnat mashg‘uloti (kun hisobida)					6	6	10	16		

* «Chet tili» o‘quv fani bosqichma-bosqich 2013-2014-o‘quv yilidan 1-sinfda, 2014-2015-o‘quv yilidan 2-sinfda, 2015-2016-o‘quv yilidan 3-sinfda va

2016-2017-o‘quv yilidan 4-sinfda joriy etiladi».

b) «O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar» bo‘limining «1–4-sinflar» kichik bo‘limiga quyidagi mazmundagi 6-band qo‘shilsin:

6. Chet tillar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar

Lingvistik kompetensiya

a) Nutqiy kompetensiya (A1)

Tinglab tushunish:

Sodda yo‘riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;
sodda savollar va gaplarni tushuna oladi;
sodda she’rlar, hikoyalar, qo‘shiqlarni tushuna oladi;
tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi.

Gapirish:

Dialog: ma’lumot so‘ray oladi va ma’lumot bera oladi;
yordam so‘rab murojaat qila oladi;
sodda savol-javob qila oladi.

Monolog: yashash joyi, oila, do‘satlari va tanishlari haqida gapira oladi;
o‘zini tanishtira oladi, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari haqida gapira oladi;
tanish mavzuda juda qisqa taqdimotlar qila oladi.

O‘qish:

tanish mavzulardagi ma’lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini tushuna oladi;

joy yoki insonlar tasvirlangan qisqacha matnni (zarur hollarda ko‘rgazmalardan foydalangan holda) tushuna oladi;

sodda xabarlarni (masalan, oddiy xatlar, elektron xatlar) tushuna oladi;

sodda yozma yo‘riqnomasi yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi.

Yozish:

shaxsiy sodda xabarlarni yoza oladi (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar);

shaxsiy ma’lumotlar (ism-sharif, yashash manzili va hokazo) bilan sodda anketani to‘ldira oladi;

sodda she’r va hikoyalar yoza oladi.

b) Til kompetensiyasi (A1)

Fonetik kompetensiya:

chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz eta oladi;

so‘z va gap urg‘usini to‘g‘ri qo‘ya oladi;

kommunikativ vaziyatlarda intonastiya modellarini farqlay biladi va ulardan foydalana oladi;

Leksik kompetensiya:

o‘zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo‘llay oladi;

mavzuga oid sodda so‘zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay oladi;

ba’zi baynalminal so‘zlar va turdosh so‘zlarni farqlay oladi hamda ularni

qo'llay oladi.

Grammatik kompetensiya:

kommunikativ vaziyatlarda sodda grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi;

so'z va so'z birikmalarini «va» bog'lovchisi bilan bog'lay oladi;

fe'l shakllari va sodda payt ravishdoshlaridan foydalangan holda gaplarni to'g'ri bayon qila oladi, hikoyalari hamda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda gapira oladi»;

3) «5–9-sinflar» kichik bo'limining 5-bandini quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

5. Chet tillar

Umumiy o'rta ta'limning 5–9-sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar:

Lingvistik kompetensiya

a) Nutqiy kompetensiya (A2 va A2+)

Tinglab tushunish:

(A2) o'z ehtiyojlari va qiziqishlariga bevosita bog'liq bo'lgan gap va iboralarni tushuna oladi;

biror erga borish bo'yicha sodda yo'riqnomalarni tushuna oladi;

sodda xabarlar va e'lonlardagi asosiy ma'nolarni tushuna oladi.

(A2+) kundalik mavzulardagi tasmaga yozilgan parchalardan muhim ma'lumotlarni tushuna oladi;

muhokama etilayotgan masalaning asosiy mavzusini aniqlay oladi.

Gapirish:

Dialog:

(A2) to'g'ri ma'lumot ola biladi va bera oladi;

salomlasha oladi va murojaat qila oladi, taklif, tavsiya qila oladi va taklifga javob bera oladi, uzr so'rashning sodda kundalik shakllarini ishlata oladi;

qisqa muloqotda ishtirok eta oladi;

sodda iboralardan foydalanib, tanish mavzuda o'z fikrini ifoda eta oladi;

sodda yumushlar (chiptalar sotib olish, xarid qilish, oshxonada taom buyura olish)ni amalga oshira oladi;

tushunmaganligini bildira oladi.

(A2+) ommaviy vaziyatlarda odamlar bilan muloqotga kirisha oladi;

qisqa suhbatlarda o'z rejalar haqida muammosiz ishtirok eta oladi (masalan, kechqurun yoki dam olish kunlari rejalar bo'yicha);

kundalik hayotga oid o'zi qiziqqan yoki o'ziga bevosita aloqador mavzularda qisqa suhbatlarda ishtirok eta oladi;

oldindan rejalar tiliga kundalik suhbatlarda ma'lum mavzularda savol-javob qila oladi, fikr va ma'lumot almasha oladi;

boshqalar fikriga qo'shilish yoki qo'shilmaslikni ifodalay oladi;

chet tilida ma'lumot, yo'riqnomalar va boshqalar yuzasidan tegishli javoblarni qaytara oladi (masalan, ko'chada o'rganilayotgan til sohibi bo'lgan so'zlashuvchi murojaat qilganda);

ma'lumotni aniqlashtirish yoki takrorlashni iltimos qila oladi.

Monolog:

(A2) odamlar, yashash yoki ish joyi sharoitlari, kundalik ishlar, yoqtirgan/yoqtirmagan narsalar va boshqalarni sodda qilib tasvirlay oladi yoki taqdimot qila oladi;

sodda iboralar bilan odamlar, joylar va buyumlarni tasvirlay oladi.

(A2+) Tanish mavzuda qisqa taqdimot qila oladi;

nimani yoqtirishi yoki yoqtirmasligini tushuntira oladi;

tadbir yoki voqeа-hodisa haqida qisqa ma'lumot bera oladi;

rejalar, tadbirlar, odatlar va tajribalarni tasvirlay oladi;

sodda iboralar bilan predmetlar va o'ziga tegishli narsalarni qiyoslay oladi.

O'qish:

(A2) juda qisqa sodda autentik va yarim-autentik matnlarni tushuna oladi; qisqa shaxsiy sodda xabarlar va xatlarni tushuna oladi;

jamoat joylaridagi umumiyl belgilar va e'lonlarni tushuna oladi;

sodda yozma ko'rsatmalarini tushuna oladi;

ro'yxatlar, veb saytlar, qo'llanmalar va boshqalardagi maxsus ma'lumotlarni qidirib topa oladi.

(A2+) rasmiy xatlarning asosiy turlarini tushuna oladi (masalan, tasdiqlash xati kabi);

ommaviy axborot vositalarida chop etilgan qisqa xabar va kichik maqolalarini tushuna oladi;

tovarlar va asbob-uskunalarini ishlatish bo'yicha yo'riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;

faktlarga asoslangan matnlarda, masalan broshyuralar, reklamalar, gazeta e'lonlaridan maxsus ma'lumotlarni topa oladi;

ba'zi notanish so'zlarning ma'nosini kontekstga qarab aniqlay oladi;

Yozish:

(A2) sodda qisqa xat va xabarlar yoza oladi (masalan, minnatdorchilik bildirish xatlari, uzr so'rash xatlari);

anketani turli shaxsiy ma'lumotlar bilan to'ldira oladi (ism-sharifi, manzili, telefon raqami, millati, ota-onasi bilan ulanish haqida ma'lumotlar va hokazo);

kundalik turmush haqida yoza oladi;

sodda biografiya yoza oladi;

sodda she'rlar yoza oladi.

(A2+) Tadbirlar va shaxsiy tajribalarni tasvirlab yoza oladi;

og'zaki xabarni tushunarli qilib yoza oladi.

b) Til kompetensiyasi (A2 va A2+)

Fonetik kompetensiya:

chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz qila oladi;

so'z va gap urg'usidan to'g'ri foydalana oladi;

kommunikativ vaziyatlarda intonastiya modellaridan to'g'ri foydalana oladi va ularni farqlay oladi;

Leksik kompetensiya:

o'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi;

mavzuga oid sodda so‘zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay oladi; ba’zi baynalmilal va o‘zlashgan so‘zlarni taniy oladi va ularni qo‘llay oladi; so‘z yasashning turli yo‘llarini farqlay oladi (qo‘shma so‘zlar, prefikslar va suffikslar).

Grammatik kompetensiya:

kommunikativ vaziyatlarda asosiy grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo‘llay oladi;

so‘z birikmalari va qo‘shma gaplarni «ammo», «va», «chunki» kabi sodda bog‘lovchilar bilan bog‘lay oladi;

fe‘l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda bayon qila oladi va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda ifodalay oladi».

2. Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 16 октябрдаги 400-сон қарори билан тасдиқланган Ўрта маҳсус, касб-хунар таълим мининг умумтаълим фанлари давлат таълим стандартининг 5-бўлими (Академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчилари ўзлаштириши зарур бўлган умумтаълим фанлари мазмунига қўйиладиган талаблар) 3-банди қўйидаги таҳрирда баён қилинсин:

3. Xorijiy tillar

Lingvistik kompetensiya:

a) nutqiy kompetensiya (B1 va B1+).

Tinglab tushunish:

(B1) ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma’nolarini tushuna oladi;

kasb-hunarga oid mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma’nolarini tushuna oladi;

shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi teleradio yangiliklar sekin, raxon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g‘oyasini tushuna oladi;

batafsil yozilgan yo‘riqnomalar yoki ko‘rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;

tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi.

(B1+) o‘z mutaxassisligi doirasidagi yaxshi tuzilgan ma’ruza yoki suhbatni tushuna oladi;

o‘z qiziqishlari doirasidagi tele yoki radio dasturlar, Internet manbalarni tinglab, asosiy ma’lumotlarni tushuna oladi;

shaxsiy, o‘qish yoki kasbga oid sohalardagi og‘zaki manbalarni tinglab, ham asosiy mazmuni, ham maxsus ma’lumotlarni anglay oladi;

til egasi bilan tanish va maxsus mavzuda muloqotga kirishganda uning aksariyat jihatlarini tushuna oladi.

Gapirish:

Dialog:

(B1) sayohat mobaynida yoki ish joyida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi;

tanish, shaxsiy qiziqishlariga oid yoki kundalik mavzularda suhbatga

tayyorgarliksiz kirisha oladi;

ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo‘yicha ma’lumot oladi va beradi hamda fikr almasha oladi;

keng miqyosdagi his-tuyg‘ular va hissiyotlar, masalan, g‘amginlik, baxtiyorlik, dixiralik, mammuniyat, hayratlanishni ifoda qila oladi va ularga javob qaytara oladi;

yeterli darajada tushunarli tarzda suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi;

sayohat, xarid, bank va boshqa umumiylig kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi;

batafsil yo‘riqlar yoki ko‘rsatmalar oladi va ularga amal qila oladi;

rasmiy intervyuda, masalan, ishga joylashish yoki stependiya olish uchun bo‘ladigan intervyuda oldindan kutsa bo‘ladigan savollarga javob bera oladi;

yuzma-yuz muloqotda yoki telefon orqali uchrashuv yoki tadbir vaqtini joyini rejalashtira oladi;

kasb-hunarga oid vaziyatlarda savol-javob qila oladi.

(B1+) Tanish kundalik va boshqa umumiylig mavzularda ma’lum darajada o‘zida ishonch bilan ma’lumot almashina oladi, ma’lumotni tekshira oladi va tasdiqlay oladi;

muammoni tushuntirib bera oladi va uni hal qilish yo‘llarini taklif qila oladi;

kutilmagan muloqot vaziyatlarida ishtirok eta oladi;

tayyorgarliksiz suhbat va muhokamalarni olib bora oladi;

tanish mavzularda debatlar va muhokamalarda ishtirok eta oladi;

muhokamalar jarayonida mavhum mavzular va masalalarda o‘z fikrini ifoda qila oladi;

muhokama yoki suhbat mobaynida o‘zgalar fikrini sharhlay oladi;

batafsil ko‘rsatmalarga oid savollarga javob bera oladi;

savollar berib, tegishli sharhlar keltirib, intervyu olib bora oladi;

intervyu yoki maslahat berish mobaynida kerakli ma’lumotlarni bera oladi.

Monolog:

(B1) ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, fikrlarni mantiqiy bog‘langan holda taqdimot qila oladi;

tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlay oladi va ular haqida bevosita axborot bera oladi;

voqealari-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bog‘lay oladi;

orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarini tasvirlay oladi;

ommaga e’lon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora-tadbirlarni tasvirlay oladi;

sodda iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarini keltira oladi.

(B1+) Ommabop yoki ixtisoslikka oid mavzuda yaxshi tuzilgan taqdimot qila oladi;

qisqa hikoya, maqola yoki muhokamaning mazmunini qisqacha bayon qila oladi;

o‘z qarashlarini tushunarli va aniq ifodalay oladi.

O‘qish:

(B1) ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab bo‘lmagan matnlarni to‘liq tushuna oladi;

kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli ma’lumotlarni topa oladi va tushuna oladi;

gazeta va Internet matnlari va manbalarning tegishli fikrlarini tushuna oladi;

asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatastiya qilish bo‘yicha yozma yo‘riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;

ommaviy matnlarning muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarini tushuna oladi.

(B1+) Kattaroq matnlarni o‘qiy oladi, matnning turli qismlaridan tegishli ma’lumot yig‘a oladi;

munozarali matnning xulosalarini aniqlay oladi;

matn mazmunining asosiy g‘oyasini ajrata oladi;

maxsus ma’lumot olish uchun nisbatan katta hajmdagi matnlarni o‘qiy oladi;

maxsus ma’lumot olish, to‘liq tushunish uchun qisqa gazeta maqolalarini va internet matnlari va boshqalarni o‘qiy oladi.

Yozish:

(B1) shaxsiy va kasb-hunarga oid kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay oladi;

normativ formatga asoslangan qisqa kasb-hunarga oid hisobotlar yoza oladi;

o‘z tajribasiga asoslangan mehnat amaliyotini o‘tagan holda oddiy hisobotlar yoza oladi;

ish joyi bilan bog‘liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo‘yicha oddiy hisobotlar yoza oladi;

rezyume va tavsiya xatlarini yoza oladi.

(B1+) Ma’ruza paytida o‘zi foydalanishi uchun etarli darajada aniq bo‘lgan qaydlar qila oladi;

o‘z qiziqishlariga taalluqli mavzuda qisqa, sodda esse yoza oladi;

rasmiy xat, ish yuritish qog‘ozlarini (ariza, rozilik xatlari, rezyume) yoza oladi;

tajriba, faoliyat va tadbirlar haqida talabga javob bera oladigan hisobotlarni yoza oladi;

loyiha ishi haqida qisqacha hisobot yoza oladi;

hikoya yoza oladi.

b) Til kompetensiyasi (B1 va B1+)

Fonetik kompetensiya:

(B1) taqdimotlar va muhokamalarda ta’kidlash maqsadida urg‘u va intonastiyadan to‘g‘ri foydalana oladi.

(B1+) Darak, so‘roq, bo‘lishsiz, buyruq gaplarda ritm va intonastiyadan foydalana oladi;

gapni ma’no bo‘laklariga ajrata oladi;

taqdimotlar va muhokamalarda ta’kid maqsadida urg‘u va intonastiyadan foydalana oladi;

chet tilining asosiy variantlarini ajrata oladi.

Leksik kompetensiya:

(B1) kasb-hunarga oid lug‘at boyligidan faol foydalana oladi;

o‘z sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so‘zlarni taniy oladi va ishlata oladi;

o‘z ixtisosligi doirasi va undan tashqarida so‘z tuzilishi elementlarini (qo‘shma so‘zlar, prefikslar, suffikslar, so‘z o‘zagi) taniy oladi va tushuna oladi.

(B1+) o‘z mutaxassisligiga oid leksikani ajrata oladi va qo‘llay oladi;

o‘z ixtisosligi doirasi va boshqa sohalarda so‘z tuzilishi unsurlarini (qo‘shma so‘zlar, prefikslar, suffikslar, so‘z o‘zagi) taniy oladi va tushuna oladi.

Grammatik kompetensiya:

(B1) kommunikativ maqsadlarda zarur bo‘ladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini taniy oladi va ulardan to‘g‘ri foydalana oladi.

(B1+) Kommunikativ maqsadlarda kerak bo‘ladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini ajrata oladi va ulardan to‘g‘ri foydalana oladi.».

CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILLAR FANLARIDAN O'QUV DASTURI (1-9 sinf)

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-son “Uzluksiz ta'lif tizimining davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori bilan tasdiqlangan umumiyligiga o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti hamda umumiyligiga o'rta ta'lifning chet tili fani bo'yicha malaka talablari asosida tuzilgan bo'lib, Xalq ta'lifi vazirining 2017-yil 3-iyundagi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va umumiyligiga o'rta ta'lif muktablarining 1-9-sinflari uchun amaliyotga joriy etiladi.

M U Q A D D I M A

O'zbekiston Respublikasida demokratik prinsiplar ustuvor bo'lgan yangi jamiyat qurish, bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega davlat barpo yetishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta'lif va tarbiya sohasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Hayotga chuqur tatbiq etilayotgan hamda dunyoda “O'zbek modeli” deb e'tirof etilgan taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismi sanalgan “Ta'lif to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalardagi rivojlanishni ta'minlayotgan asosiy omillardan biri sifatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Mazkur hujjatlarda, birinchi navbatda, inson manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariiga mos holda ortib borayotgan ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish hamda amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investisiyalarning yildan-yilga o'sib borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan, globallashuv, dunyo bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir davrda, demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvshi kuch bo'lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim omil bo'lmoqda.

Ta'lif tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional malakalarni egallashi, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni o'qitish, shu tillarda erkin muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash hamda buning negizida, ularning

jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, ulkan intellektual boylikni egallashlariga katta imkoniyatlar yaratiladi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integrastiyalashuvi, fan texnika va texnologiyaning rivojlanishi yosh avlodning ko‘p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi bir necha chet tillarni mukammal egallahni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali ta’minlanadi.

Yevropa Kengashining “Chet tilni egallahning umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish, baholash” to‘g‘risidagi hujjati (CEFR) umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlardan biridir. Ushbu hujjatning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganish bo‘yicha yangi Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

UQTIRISH XATI

Uzluksiz ta’lim tizimida tillarni o‘rgatish-o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida chet til o‘rganishga ehtiyoj kuchaydi. Madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida chet til o‘rganish davr talabiga aylandi.

Chet tilda nutqiy faoliyat yuritish o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltiriladi, ya’ni o‘rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o‘zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv jarayonida o‘quvchi avval egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsiyonal tajribasini boyitadi. Muloqotdosh (kommunikant)larning bir-birini tushunishlari chet til bilishning asosiy mezoni hisoblanadi.

Ta’lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilning farqi bir paytning o‘zida, uning ham ta’lim maqsadi, ham ta’lim vositasi ekanligida namoyon bo‘ladi. Chet tilda nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv)ni egallah ta’limdan ko‘zlanadigan maqsad bo‘lishi bilan birga o‘rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi. O‘quvchi (learner) faqat muloqotdosh sifatida emas, balki axborot sohibi (kognizant) maqomida o‘rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o‘rganish chog‘ida o‘quvchi lingvistik bilimlar to‘plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalari (kompetensiyasi)ni oshirish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallahga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida chet til o‘rgatiladi. Chet til ta’limida kommunikativ-kumulyativ metod tatbiq etiladi. Xorijiy G‘arb lingvodidaktikasi istilohida bu madaniyatlararo muloqot yo‘nalishi nomi bilan yuritiladi.

Chet til va madaniyat yaxlit (integrastiyalashgan) holda o‘rgatiladi. Madaniyat, bu o‘rinda inson fikri va faoliyati hosilasi tushunshasini ifodalaydi. Chet tilda o‘rganiladigan lisoniy (leksik, grammatik, talaffuzdagi) birlikda lingvomadaniy xususiyatlar tajassum topgan va nutqiy jarayon (diskurs)da ularga o‘quvchi e’tibori qaratiladi. Mazkur metodik qoida doirasida chet til o‘qitish maqsadi va mazmuni belgilanadi.

Maqsad deganda, chet til va uning sohibi madaniyatini o'rgatish va o'rganishning ongli tarzda rejalashtirilgan natijasi ko'zda tutiladi. O'qitish sharoitidan kelib chiqib, muayyan maqsad qo'yiladi. Sharoit tushunshasi qamroviga o'quv muassasasi turi (maktab), o'quvchining psixologik (yosh) xususiyati, til tajribasi, o'quv predmetiga ajratiladigan vaqt (dars soatlari) kiradi.

O'qitish mazmuni jahonda e'tirof etilgan didaktik ta'limotga binoan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi. Chet tilni amaliy o'rganishda lingvistik nazariy bilimlar umuman bayon etilmaydi. Bilim til materialini bilish (ko'nikma) va uni o'zlashtirishda yuz beradigan qiyinchiliklarni oddiy so'zlar bilan sodda tilda tuchuntirish, ya'ni xatolarning oldini olishga qaratilgan ko'rsatma ma'nosini bildiradi. Ko'nikma tarkibiga kiradigan amaliy qoida ona tili va chet tilda farqlanadigan yoki til ichki interferensiyasini keltirib chiqaradigan chet til hodisalari bo'yicha beriladi (masalan: artikl (ona tilida yo'q), otning ko'plik shakli (birlik shakli leksik birlik hisoblanadi) yoki ingliz tilidagi otning ko'plik shakli, qaratqish kelishigi, fe'lning sodda hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shakli (har uchalasi [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etiladi va til ichki interferensiyasiga sabab bo'ladi).

O'qitish mazmuni komponentlaridan til materiali o'rganilmish chet til sistemasidan minimum sifatida tanlanadi (o'quvchi uchun u lisoniy maksimum hisoblanadi). Minimum til o'rgatish uchun zarur va etarli bo'lmog'i kerak. Tanlangan minimumdagи lisoniy birlklarni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradigan qismigina til materialining o'rgatish mazmunini tashkil etadi va o'quv dasturidan o'rinni oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-9-sinflari uchun chet tillar fanlaridan o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-sonli qarori hamda Xalq ta'limi vazirligining 2013-yil 14-maydagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 163-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dastur talablari asosida 2013-2016 o'quv yillari davomida umumta'lim maktablarning 1-9-sinflarida chet tillar fanlari o'qitildi.

Ushbu o'quv dastur O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori asosida chet tillarga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarining chet tillar fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflari uchun A1+ – chet til egallashning kuchaytirilgan boshlang'ich darajasi, A2+ – chet til egallashning kuchaytirilgan tayanch darajasi kiritilgan holda takomillashtirildi hamda Xalq ta'limi vazirligining 2017-yil 3-iyundagi "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9-sinflari uchun ingliz tili fanidan o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi “Uzluksiz ta’lim tizimining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standarti asosida chet til bilishning boshlang‘ich va tayanch darajalari (A1, A1+, A2, A2+) talablari asosida tuzilgan. Ushbu ta’lim bosqichlari bitiruvchilari Davlat ta’lim standartining mazkur darajalari uchun qo‘yilgan talablarga javob berishlari shart.

Chet til o‘qitish mazmuni uch tarkibli ta’limiy hodisadir:

- 1) nutq mavzulari;
- 2) ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar;
- 3) til materiali.

O‘qitish mazmuni mayjud sharoitga ko‘ra, jumladan, o‘quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chet til o‘quv predmetiga ajratilgan soatlar miqdori:

I sinfda haftasiga 2 soat (o‘quv yilida 66 soat).

II-IV sinflarda haftasiga 2 soat (o‘quv yilida 68 soat).

V-IX sinflarda haftasiga 3 soat (o‘quv yilida 102 soat).

Ingliz tili faniga ixtisoslashtirilgan maktablarda hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining chet til fani chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflarida chet til o‘quv predmetiga ajratilgan soatlar miqdori:

II-IV sinflarda haftasiga 3 soat (o‘quv yilida 102 soat).

V-IX sinflarda haftasiga 5 soat (o‘quv yilida 170 soat).

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, chet tillar fanlariga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining chet til fani chuqurlashtirilib o‘qitiladigan sinflarida chet til o‘qitish sharoitini hisobga olgan holda “Chet tilini bilishning umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” talablariga tayangan holda I-IV sinflarda A1 – chet til egallahning boshlang‘ich darjasи (yoki “Kurtaklash bosqichi”), A1+ – chet til egallahning kuchaytirilgan boshlang‘ich darjasи, V-IX sinflarda A2 – chet til egallahning tayanch darjasи (yoki “Bo‘sag‘a oldi bosqichi”), A2+ – chet til egallahning kuchaytirilgan tayanch darjasи belgilandi.

CHET TIL O‘QITISH MAQSADI

Ta’lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida chet til o‘qitishga tatbiqan quyidagicha ta’riflanishi mumkin: umumta’limiy yo‘nalishdagi o‘quv predmetlaridan bo‘lmish chet tilni o‘rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta’lim mazmunini belgilash, o‘qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash. Maktabda chet til nima uchun o‘rganiladi? savoliga javob tariqasida qo‘llanadigan termin-tushunchadir. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga chet til

(1) **amaliy maqsad**, (2) **umumta’limiy maqsad**, (3) **tarbiyaviy maqsad** va (4) **rivojlantiruvchi maqsadda** o‘rgatiladi.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadi erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida chet til o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi:

I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi.

II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi;

V-VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv – amaliy vosita;

VII-IX sinflarda tinglab tushunish va o'qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv – vosita.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiali tanlanadi, o'quv vaqtining asosiy qismi ularning o'rganishga bag'ishlanadi, ya'ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati tur(lar)ida bajariladi.

Amaliy maqsadga lingvistik, sostiolingvistik nutqiy (kommunikativ) va lisoniy, pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali erishiladi. Kompetensiya ma'lumki, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy belgilar majmuidan iborat. Kompetensiya tarkibiga kichik kompetensiyalar kiradi. Lingvistik kompetensiyada lisoniy hodisalarning nutqda qo'llanilishi nazarga olinadi. *Sostiolingvistik* kompetensiyada muloqot vaziyati, maqsadi va muloqotdoshlar vazifasiga mos tarzda fikr bildira olish ko'zda tutiladi. *Pragmatik* kompetensiya kommunikativ vaziyatda o'zini tuta bilish (masalan, takroran so'rash, nutqiy va lisoniy murakkablik tug'ilganda undan chiqa olish) layoqatiga taalluqlidir. Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskursiv kompetensiya og'zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida hosil qilingan barcha kompetensiyalarning uzviy yaxlitligi (sintezi) ta'minlanadi. Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida o'quvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va uning shaxsi rivojlanadi.

Chet til o'qitish umumta'limiy maqsadining ro'yobga chiqishida o'rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi sodda ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'quvchining umumiylasaviyasini ko'tarish, o'rganilayotgan til va madaniyat haqida yangi ma'lumotga ega bo'lish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, aqliy mehnat usullarini qo'llash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilarga erishiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda asosan lingvistik, strategik (kompensator), o'quv-kognitiv, diskursiv layoqatlar takomillashadi.

Boshqa fanlar qatorida chet til ham majburiy o'quv predmeti maqomida umumiy ta'lim berish/olishga o'z hissasini qo'shadi. Umumta'lim obyekti uchta: til hodisasi, unga oid tushuncha yoki sodda qoida va eng muhimmi, chet tildagi diskurs mazmuni.

Chet til o'qitish tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarga g'oyaviy tarbiya berish,

aqliy mehnat malakalarini singdirish, ularning bilish faolligini oshirish mazkur maqsadning mohiyatini tashkil etadi.

Tarbiyaviy maqsad asosan ikki yo‘l bilan ro‘yobga chiqariladi:

(1) bevosita chet tilda salomlashish, xayrlashish, predmet va hodisalarining nomlarini bilish, she’r va ashula aytish, o‘yinlar bajarish kabilar, ayniqsa, dastlabki darslarda o‘quvchilarga ancha qiziqarli yumush sanaladi;

(2) muloqot chog‘ida bir-birlariga odob doirasida munosabat bildirish, xatti-harakatlarini sharhlay olish, audiomatn va grafik matnlardan olinadigan axborotlar beqiyos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Darsdan tashqari o‘quv tadbirlarining ham tarbiyaviy ahamiyati cheksiz.

Chet til o‘qitishning rivojlantiruvchi maqsadi didaktikadagi rivojlantiruvchi ta’lim ma’nosni bilan hamohang bo‘lib, o‘quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivastion jihatlarini rivojlantirishni ifodalaydi. O‘quvchi intellektual va ma’naviy ozuqa oladi, nutqiy muloqotda o‘z hissiyotini sinab ko‘radi, muloqotdosh (o‘quvchi, muallim, direktor va b.) lar fikrini bilish va o‘z fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi. Ta’lim jarayonida, jumladan, chet til o‘rganishda me’yordagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish o‘quvchi tafakkuri va his-tuyg‘ularining rivojlanishini ta’minlaydi.

Rivojlantiruvchi maqsadga nutqiy amallar tufayligina erishiladi. Uning umumta’limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o‘quv ma’lumotlari olish bilan ta’lim fikran bog‘lanadi, ma’lumotning mazmuni turli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim, jumladan, chet til o‘rganish shaxs rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi. Til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy hodisa bo‘lganligi sababli bilish jarayoni uchun o‘ta ahamiyatlari, chunki u bilmaslikdan bilishga eltuvchi omildir.

Chet tilda o‘quvchi ikki turdagini bilim oladi, birinchisi va asosiysi, nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli algoritmik qoidalar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o‘quvchi hayoti davomidagi foydali ma’lumotlar.

Madaniyatlararo muloqot o‘zga xalq mentalitetiga xos belgilari va odatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bunda boshqalarning turmush tarzini reklama qilish emas, balki chet til sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarash va oqibatda, o‘z madaniyatini chuqur his qilishga o‘rganadi. Umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg‘unlashuviga sodir bo‘ladi.

Chet tilda muloqot qilish to‘rt asosiy nutq faoliyati turlari bo‘yicha malakalarni shakllantirish demakdir. Nutq faoliyatining to‘rt turi: tinglab tushunish, gapishtirish, o‘qish va yozuv malakalari o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirib boriladi. Bu o‘qish va yozish, o‘qish va tinglash, o‘qish va gapishtirish, tinglash va o‘qish, tinglash va yozish, tinglash va gapishtirish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish. Nutqni tinglab tushunish deganda, so‘zlovchining nutqini bevosita yoki texnikaviy vositalar yordamida eshitib idrok etish va fahmlash nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglab tushunish o‘zgalar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma’nosini ifodalaydi. Yangi til materiali o‘quvchilarga odatda o‘qish yoki

tinglash orqali tanishtiriladi. Tinglab tushunish talaffuz va ohangni ham o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo‘lib, unda umumiyl eshituv idroki (akustik appersepsiya), so‘zlarning tovush tomonini (fonematik) farqlash va mohiyatini anglash orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi. Eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida o‘qituvchi nutqi, audio-video vositalardan magnitafon yozuvi, radio eshittirish, ovozli diafilm, kino (video) film (yoki undan parcha) va televizion ko‘rsatuvar tavsiya etiladi.

Tinglab tushunishni amalga oshirish uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o‘ziga bog‘liq omillari (eshitish ko‘nikmasining rivojlanganligi, uning xotirasi va matnni diqqat bilan tinglab, mazmunini tushunganligi), tinglash paytidagi shart-sharoit (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so‘zlanayotgan nutqning davom etishi) va nihoyat, qo‘llangan materialning lingvistik jihatlari (tinglovchining til tajribasiga mos kelishkelmasligi) hisobga olinadi, ya’ni tinglab tushunishga beriladigan matn notanish bo‘lib, o‘quvchilar egallagan til materiallarini o‘z ichiga oladi.

Gapirish. Gapirish nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lib, fikrni og‘zaki bayon etishdir. Gapirish – fikr va his-tuyg‘uni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va fonetik hodisalarini qo‘llashdan iborat bo‘lib, u chet tilni o‘rganishning muhim amaliy maqsadidir.

Gapirish – o‘quvchilarga o‘zlarining fikr-tuyg‘ularini ifoda etishga, qiziqishlari va hayotiy faoliyatlar haqida suhbatlashishga hamda ularni boshqalar fikri bilan taqqoslashga imkoniyat yaratib beradi.

Fikrni og‘zaki ikki shaklda, ya’ni monolog (yakka nutq) va dialog (juft nutq) tarzida ifodalash mumkin.

Monolog bir kishining nutqi bo‘lib, unda ketma-ket keladigan jumlalar mantiqan bog‘lanadi. Nutqning ohangi va mazmuni qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltiriladi. Monolog quyidagi belgilarga ega:

- mazmunan izchillik kuzatiladi, ifodalanadigan fikrlar tayanch jumlalar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi;
- fikr-mulohazaning ma’lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi.

Dialogda ikki va undan ortiq kishi, tinglovchi hamda gapiruvchi sifatida navbatma-navbat axborot almashadilar.

Dialog quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ajralmas dialogik birlikning nutqiy vaziyatga mos kelishi;
- dialog faqat munosabatgina emas, balki gapirishga undovchi (stimul) va javob (reaksiya) jumlalari (replikalari)ni almashish natijasi hamdir;
- dialogik birlikdagi qisqartmalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi;
- suhbatning mazmunan bog‘liq bo‘lishi.

O‘qish. O‘qish o‘quvchilarning ma’lumot olishlari uchun juda muhim nutq faoliyati turi bo‘lib, u yozma nutqni idrok etish va anglashdan tarkib topadigan resteptiv nutq faoliyati hisoblanadi. O‘qishda axborot ko‘rish sezgisi orqali olinadi.

O‘qish yozma matndan axborot olishga qaratilgan nutq faoliyati turidir.

Matndagi axborotni o‘zlashtirish ovoz chiqarmay o‘qish orqali, axborotni o‘zgalarga yetkazish esa, ovoz chiqarib o‘qish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o‘qiganda ham ichda gapirish (ichki nutq) sodir bo‘ladi. Ovoz chiqarib o‘qish ovoz chiqarmasdan o‘qishga nisbatan to‘liq nutq hisoblanadi. Umumiyligi o‘rtacha’lim mifikabini bitiruvchi o‘quvchilar murakkab bo‘lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop mavzulardagi, shuningdek, badiiy adabiyotlardagi matnlarni o‘qiy olishlari kerak. O‘qish uchun beriladigan matnlar bir-biridan farq qilib, ularning tuzilishi va bayon etilishi asta-sekin murakkablashib boradi.

O‘qish malakalari shakllangan lisoniy ko‘nikmalar asosida rivojlantiriladi. O‘qish malakasi shunday faoliyatki, u nutq birligining ko‘rvu timsoli, uning nutq-harakat timsoli va mazmunidan tashkil topadi. Uchlasini egallab olish o‘qish malakasining hosil qilinganligidan dalolat beradi. O‘qish uchun berilayotgan matnlar ma’lumot olish, muloqot qilish hamda leksik-grammatik materiallarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yozuv. Chet tilda o‘rganishda yozuv deganda, o‘rganilayotgan til vositalari (grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklarning qo‘llanishi, ya’ni yozish texnikasi) va yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.

Yozuv grammatik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma fikrni bayon etishdir.

Axborotni yozma bayon etish, odatda, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- o‘z fikrini yozish;
- aytib (o‘qib) turilgan o‘zga shaxs nutqini yozuvda ifodalash.

Har ikkala holatda ham yozma matn (diskurs) yaratiladi. Yozish texnikasi deganda, grafika (tovush-harf munosabati va harfning ma’no bildirish vazifasi), kalligrafiya (husnixat), orfografiya (imlo) nazarda tutiladi.

Grafika o‘qish va yozish texnikasi tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq.

Imlo so‘z va gaplarni yozish va ularga doir qoidalar yig‘indisidir.

Husnixat tushunshasi tarkibiga tovush va tovush birikmalarini yozuvda tasvirlaydigan yozuv-chizuv vositalari majmuasi (harflar, harf birikmalari, harf ustisi va harf osti belgilari) kiradi.

Husnixat harf, harf birikmasi, so‘z asosida, imlo esa morfema, so‘z gap darajasida, yozma nutq esa gap, abzats (gap boshi) va o‘zaro bog‘langan matn (diskurs) materialida o‘rgatiladi. Yozuv malakasi husnixat, imlo, tuzish (fikrni yozma bayon etish maqsadida gaplarni biriktirish), yozuvning leksik va grammatik ko‘nikmalaridan tashkil topadi.

CHET TIL O‘QITISH MAZMUNI

Chet til o‘qitish sharoiti va maqsadiga ko‘ra, madaniyatlararo muloqotdosh (kommunikant) va axborot sohibi (kognizant)ni shakllantirish yo‘lida o‘qitish mazmuni maxsus tanlanadi va u chet tilda kommunikativ kompetensiyani egallahda asosiy ta’limiy obyekt hisoblanadi. O‘qitish mazmunida ikki jihat kuzatiladi: nimani o‘rganish va nima qilishni o‘rganish. Birinchisi o‘quv materiali va ikkinchisi o‘quv jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv materiali dasturdan

o‘rin oladi. Ikkinchisi ko‘nikma va malakalarga mansub kommunikativ kompetensiyani hosil qilish jarayoni bo‘lganligi tufayli dasturda ularga tegishli talablar canab o‘tiladi. Nutq faoliyati doirasi dasturiy mavzular bilan belgilanadi. Yaratilgan (gapis, yozuvda) va o‘zga shaxs sodir etgan (tinglab tushunish va o‘qishda) diskurs dasturdan o‘rin olgan mavzularga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Chet til o‘qitish mazmuni o‘qitish maqsadlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, u odatda maqsad mazmunini belgilaydi. Mazmun ta’lim chog‘ida o‘zlashtiriladigan metodik tushuncha yoki kategoriya bo‘lsa, uning mahsuli erishiladigan maqsadni aks ettiradi. O‘qitish mazmuniga nutqiy mavzular, malaka va ko‘nikmalar hamda til materiali kiradi. Ushbu uchta tarkibiy qism chet tilni o‘rganishda yaxlit o‘zlashtirishni taqozo qiladi.

Nutq mavzulari o‘qitish maqsadlariga asoslanib tanlanadi. Umumiy o‘rtalim maktablarida «O‘quvchi va uni o‘rab turgan atrof-muhit», «Vatanimiz» va «Tili o‘rganiladigan mamlakatlar» kabi mavzular asosiy nutq mavzulari hisoblanadi. O‘qish uchun siyosiy, badiiy, ilmiy, ma’naviyat va madaniyat hamda sportga oid matnlar tanlanadi.

Tanlab olingan mavzu va unga oid matnlar o‘quvchilarning yoshi hamda qiziqishlariga mos kelishi kerak.

Mazkur dasturda o‘quvchilar yoshi va qiziqishlarini hisobga olgan holda mavzular jadvallarda sinflar bo‘yicha alohida berildi. Jadvalda sinflar bo‘yicha taqsimlangan asosiy mavzular miqdori darslikda shu miqdordagi bo‘limlar bo‘lishi kerak degan ma’nioni anglatmaydi. Asosiy mavzular tarkibidagi kichik mavzular ham til materiali hajmidan kelib chiqqan holda alohida bo‘lim bo‘lishi mumkin.

Nutq malakalari deganda, chet tilda nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, gapis, o‘qish va yozuv)ni egallash darajalari tushuniladi. Malaka o‘quvchilarning chet til o‘rganish davrida olgan ko‘nikmalarini amaliy faoliyatida sobitqadamlik bilan mustaqil ravishda qo‘llay olish kompetensiyasi (layoqati)dir. Nutq malakalari til materialini muloqot paytida qo‘llash jarayonida rivojlanadi va takomillashadi.

Umumiy o‘rtalim maktablarida chet til o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lmish nutqiy malakalarni singdirish chog‘ida ularga mos keladigan lisoniy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishdan iboratdir. Bunday ko‘nikmalar asosini ushbu dasturda ko‘rsatilgan til materiali tashkil qiladi. Til materiali dasturda Davlat ta’lim standartiga muvofiq tarzda alohida berildi.

Til materiali, ma’lumki, leksik, grammatik va fonetik hodisalarini o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida leksik, grammatik, talaffuz hamda imlo birligi kabi tushunchalarni farqlash, darslik va qo‘llanmalar tuzishda ulardan o‘z o‘rnida foydalananish zarur.

Til birligi leksik, grammatik, talaffuz va orfografiya (imlo) birliklarini ifodalaydi.

Lug‘at birligi – o‘zak so‘z va yasama so‘zdan iborat, leksik birlik (o‘zak so‘z, yasama so‘z (uning tarkibidagi so‘z yoki so‘z yasovchi elementlar), so‘z yasovchi affiks, turg‘un so‘z birikmasi, gap (og‘zaki nutqning ilgarilashi sharoitida qismlarga bo‘linmay o‘rgatiladigan tayyor jumlalar)ni o‘z ichiga oladi.

Grammatik birlik – morfologiya va sintaksis hodisalar, talaffuz birligi – fonetik minimumdagи tovush-fonemadan to jumlalar ohangigacha, imlo birligi – harf, harf birikmasi, so‘z, so‘z yasash, shakl va gap yasash elementlari, so‘zning o‘zgaruvchan hamda o‘zgarmaydigan shakllaridan iboratdir.

Umumiy o‘rtalim mifiktabini bitiruvchi o‘quvchilar egallaydigan 1500 ta leksik birlikni nutqda o‘zlashtiradilar.

Chet til grammatikasini o‘rgatish asosan induktiv (nutqda o‘rganilgan lisoniy hodisaga qoida-umumlashma) va qisman deduktiv (o‘qish va tinglashda uchraydigan grammatik hodisalarga oid algoritmik qoida berish) uslublarida amalga oshiriladi. Chet til grammatikasini o‘rgatish mazmuni uchta metodik mezonga ko‘ra (o‘quvchining ona tili va ikkinchi tildan to‘plangan grammatik tajribasini hisobga olib, chet tilning o‘zidan yig‘iladigan tajribaga asoslanib va grammatik hodisalar taqdimoti tartibini nazarga olib) tanlanadi va ularga maxsus mashqlar beriladi.

CHEТ TILNI AMALIY O‘RGANISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

O‘quvchilarga nutq faoliyatining turlari – tinglab tushunish, gapishtish, o‘qish, yozuvni hamda til materiali – leksika, grammatika, talaffuzni o‘rgatish natijasida ularning chet tilda kommunikativ (axborot almashish) kompetensiyasi shakllantiriladi.

Davlat ta’lim standartiga asosan maktablarning I-IX sinflarida chet tilni o‘qitish shartli ravishda ikki bosqichga (A1(A1+), A2 (A2+)) bo‘linadi:

Birinchi bosqich (A1, A1+) – nutq faoliyatini ta’minlaydigan malakalarning asosi chet tillarni o‘qitishning birinchi bosqichi I-IV sinflarda shakllantiriladi. 1-sinfda til o‘rganish turli o‘yinlar orqali amalga oshiriladi. Bunda chet til tinglab tushunish va gapishtish (o‘qituvchi nutqi, audio-video moslamalar orqali takrorlash) orqali o‘rgatiladi.

Ta’limning A1 (A1+) darajasida 1-sinfda ingliz tilida tinglab tushunish va gapishtish nutq ko‘nikmalari rivojlantiriladi, 2-sinfdan boshlab tinglab tushunish, gapishtish, o‘qish va yozish nutq ko‘nikmasi shakllantiriladi. Talaffuz, ayniqsa, ohangni o‘zlashtirish, urg‘u qo‘yish ustida olib boriladigan mashqlar ikkinchi bosqichda ham davom ettiriladi.

Birinchi (A1, A1+) darajaning har bir sinfi oxirida o‘quvchilar quyidagi malakalarni egallashlari lozim:

A1/1 (I sinf)

Tinglab tushunish

- qisqa savollarni tushunish va javob qaytarish;
- sodda va qisqa matnlarni tinglab tushunish;
- sinfda qo‘llaniladigan iboralarni tushunish;
- oila a’zolari, atrof-muhitdagi narsalar haqidagi sodda nutqni tushuna olish;
- o‘qituvchining chet tildagi ko‘rsatmalarini bajara olish;
- mavzuga oid o‘yinlardagi so‘z va iboralarni tinglab tushunish.

Gapirish

- salomlashish, xayrlashish, uzr so‘rash, ismi va yoshini ayta olish;
- 1-20 gasha bo‘lgan sonlarni ayta olish;
- oila haqida gapira olish;
- tanish mavzular bo‘yicha sodda savollar berish va ularga javob bera olish;
- kundalik hayot bilan bog‘liq sodda gaplar ayta olish;
- mavzuga oid o‘yinlarda so‘z va iboralarni nutqda qo‘llay olish.

A1/2/A1+/2 (II sinf)

Tinglab tushunish

A1

- mavzular bo‘yicha berilgan savol va ma’lumotlarni tushuna olish;
- sodda matnni tinglab tushunish;
- sinfda qo‘llaniladigan iboralarni tushunish;
- tovushlarni audiomatnda farqlay olish.

A1+

- kundalik hayotda qo‘llaniladigan sodda iboralarni tushunish.

Gapirish

A1

- maktab, o‘quv fanlari, hafta kunlari haqida gapira olish;
- tanish mavzular bo‘yicha savollar bera olish va ularga javob qaytara olish;
- qisqa suhbat (dialog)larda ishtirok etish.

A1+

- kun tartibini sodda gaplar orqali gapira olish.

O‘qish

A1

- harf, harf birikmalari va so‘zlarni to‘g‘ri o‘qiy olish;
- mavzular doirasida kichik, sodda matn va diloglarni o‘qib tushuna olish;
- tanish so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qish orqali tovushni yozuvdagagi harf bilan solishtira olish;
- bir daqiqada 25-30 so‘z tezligida o‘qiy olish.

A1+

- qisqa so‘z birikmalarini to‘g‘ri o‘qiy olish;
- bir daqiqada 30-35 so‘z tezligida o‘qiy olish.

Yozuv

A1

- o‘rganilgan so‘zlarni alfavit tartibida yoza olish;
- mavzularga mos so‘zlarni yoza olish;
- sodda gaplar tuza olish;
- mavzular doirasida sodda savollarga javob yoza olish;
- xotiradagi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish;

– shaxsiy ma'lumotlarni yozma ifodalash.

A1+

- o'zi haqida qisqa sodda gaplar tuza olish;
- kun tartibini yoza olish;

A1/A1+/2 (III sinf)

Tinglab tushunish

A1

- mavzular bo'yicha berilgan savol va ma'lumotlarni tushuna olish;
- qisqa ma'lumotlarni tekshirib ko'rish uchun tinglash;
- 20-30 ta so'zdan iborat dialog yoki monologlarni audiomatnda tinglab tushunish;
- tovushlarni audiomatnda farqlay olish.

A1+

- 30-40 ta so'zdan iborat dialog yoki monologlarni audiomatnda tinglab tushunish;
- sodda so'zlarni tinglab, tovushlarda farqlay olish.

Gapirish

A1

- yil fasllari, uy xonasini tasvirlay olish;
- tanish mavzular bo'yicha kichik suhbat (dialog) va monologlarda ishtirok etish, savollarga javob bera olish, iltimos bilan murojaat qila olish;
- uzr so'rash, kimnidir tug'ilgan kuni bilan tabriklash kabi vaziyatlarda xushmuomalalik iboralarini qo'llay olish.

A1+

- oila a'zolarini tasvirlay olish;
- telefonda kichik suhbat qila olish;
- o'z qiziqishlari haqida sodda gaplar orqali gapira olish.

O'qish

A1

- tanish va yangi so'zlardagi harf va harf birikmalarini to'g'ri o'qiy olish;
- yangi so'zlarning ma'nosini anglash uchun darslik lug'ati, rasmli lug'atlardan foydalana olish;
- berilgan matnni o'qib, mazmunini tushuna olish.
- so'zlarni ovoz chiqarib o'qish orqali tovushni yozuvdagi harf bilan solishtira olish;
- bir daqiqada 30-40 ta so'z tezligida o'qiy olish.

A1+

- bir daqiqada 40-50 ta so'z tezligida o'qiy olish;
- berilgan matn asosida mashqlar bajara olish.

Yozuv

A1

- o'rganilgan so'zlarni alfavit tartibida yoza olish;
- lug'at diktant yoza olish;
- o'rganilgan so'zlardan foydalanib, chet tilidagi gaplarni ona tiliga tarjima qila olish:

- namunalar asosida oddiy gaplar tuza olish;
- xotiradagi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish;
- namunalar asosida mikrodialoglar tuza olish.

A1+

- rasmlar asosida kichik matnlar tuza olish;
- mavzular yuzasidan mikrodialoglar tuza olish.

A1/ A1+/2 (IV sinf)

Tinglab tushunish

A1

- mavzular bo‘yicha berilgan savol va ma’lumotlarni tushunish;
- muayyan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish uchun tinglash;
- 80 so‘zdan iborat dialog yoki monologlarni tinglab tushunish;
- audiomatnda tovushlarni farqlay olish;
- sinfda qo‘llaniladigan iboralarni tinglab tushunish.
- qisqa matndan kerakli ma’lumotni ajrata olish;
- sodda e’lon va xabarlarni tushunish.

A1+

- 90 so‘zdan iborat dialog yoki monologlarni audiomatnda tinglab tushunish;
- so‘zlarni tinglab, tovushlarni farqlay olish.

Gapirish

A1

- sport turlari yuzasidan gapira olish, savollar so‘ray olish va javob bera olish, iltimos bilan murojaat qila olish;
- tanish mavzular bo‘yicha mikrosuhbat (dialog va monologlar)da ishtirok etish;
- o‘qigan yoki tinglagan matnlar yuzasidan savollarga javob qaytarish va mazmunini gapirib berish.

A1+

- yashash manzilini tasvirlay olish;
- o‘zi va oila a’zolarining kasbi haqida gapira olish;
- tug‘ilgan kun, bayram va ta’tillar haqida gapira olish;
- rasmga qarab kichik hajmdagi matnlar tuza olish.

O‘qish

A1

- yangi so‘zlarning ma’nosini anglash uchun darslik lug‘ati va rasmli lug‘atlardan foydalana olish;
- matndan kerakli ma’lumotni ajratib olish uchun o‘qiy olish;
- harf, harf birikmalarini to‘g‘ri o‘qiy olish;
- tanish kontekstda berilgan harf, muayyan so‘zlarni anglay olish;
- qisqa iboralarni tushunganligini namoyon etish;
- qisqa matnni o‘qib, mazmunini tushuna olish.

- so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qish orqali tovushning yozuvdagi ifodasini bilish;
- reklama, xatlarni o‘qiy olish;
- bir daqiqada 40-50 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A1+

- bir daqiqada 50-60 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- kichik hajmdagi matni o‘qib gapirib berish.

Yozuv

A1

- o‘rganilgan so‘zlarni alfavit tartibida yoza olish;
- oddiy gaplarni ko‘chirib yozish;
- bosh harflar va tinish belgilarini yozuvda to‘g‘ri qo‘llash;
- o‘rganilgan grammatik hodisalarni qo‘llab gaplar tuza olish;
- xotiradagi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish.

A1+

- rasmni yozma tasvirlab bera olish;
- mikrodiologlar tuza olish;
- kichik diktantlar yoza olish.

Ikkinchи bosqich (A2, A2+) V-VI sinflarda tinglab tushunish, gapirish, o‘qishni maqsad maqomida va yozuvni ta’lim vositasi maqomida egallash davom ettiriladi. O‘qilgan va tinglangan matnlar asosida gapirish malakalari rivojlantiriladi.

IX sinfga kelib o‘quvchilar ikki turdagи tarjima malakalarini egallaydilar. Birinchisi – qisqa matnlarni chet tildan ona tiliga yozma tarjima qilish. Ikkinchisi – chet tildagi yangi leksik birlikning ma’nosini ochishda, boshqa usullar qatorida, tarjimadan ham foydalanish.

Chet til o‘qitishdagi amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar va nutq malakalariga qo‘yiladigan talablar dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi.

Ikkinchи (A2, A2+) darajaning har bir sinfi oxirida o‘quvchilar quyidagi malakalarni egallagan bo‘lishlari kerak:

A2/A2+/1 (V sinf)

Tinglab tushunish

A2

- mavzular bo‘yicha berilgan savol va ma’lumotlarni tushuna olish;
- matndan kerakli ma’lumotni ajrata olish;
- ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish uchun tinglash;
- 100 tagacha so‘zdan iborat audiomatnlarni tinglab tushunish;
- audiomatndagi tovushlarni farqlay olish va ularni yozuvda grafemalar bilan to‘g‘ri ifodalay olish;
- sinfda qo‘llaniladigan iboralarni tinglab tushunish;
- aktiv va passiv so‘zlardan iborat matnni tinglab tushunish.

A2+

- 120 tagacha so‘zdan iborat audiomatnlarni tinglab tushunish;
- kundalik hayotda qo‘llaniladigan iboralarni tinglab tushunish;
- audiomantlar asosida mashqlar bajara olish.

Gapirish

A2

- oila, maktabni tasvirlay olish;
- bo‘sh vaqt va qiziqishlari yuzasidan fikrlarini ifodalay olish;
- savollar bera olish va ularga javob berish, iltimos bilan murojaat qila olish;
- tanish mavzular doirasida qisqa suhbat (dialog)larda ishtirok etish;
- o‘qigan yoki tinglagan matnlari yuzasidan savollarga javob berish;
- salomlashish, xayrashish, uzr so‘rash va bayram bilan tabriklashda xushmuomalalik iboralarini qo‘llay olish.

A2+

- davlatlar va diqqatga sazovor joylar haqida qisqa ma’lumotlar bera olish;
- o‘qigan yoki tinglagan matnlari yuzasidan gapira olish;
- rasmga qarab gapira olish.

O‘qish

A2

- yangi so‘zlarning ma’nosini anglash uchun darslikda beriladigan lug‘at yoki ikki tillik lug‘atdan foydalana olish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish;
- matnni ma’lumot olish uchun o‘qib tushunish;
- matndan kerakli ma’lumotni olish uchun o‘qish;
- tanish kontekstda berilgan yangi so‘zlarni anglay olish;
- qisqa iboralarni o‘qib tushunish;
- tanish matnni o‘qib, mazmunini aytib berish;
- so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qish orqali tovushni grafemalarda ifodalay olish;
- bir daqiqada 50-60 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A2+

- bir daqiqada 60-70 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- o‘qigan matn asosida savollar tuza olish;
- mikrodiologlar va monologlar tuza olish.

Yozuv

A2

- mavzuga doir diktant yozish;
- gap va mikromatnni ko‘chirish, nuqtalar o‘rnini mos so‘zlar bilan to‘ldirib ko‘chirish;
- o‘rganilgan grammatik hodisalar asosida sodda gaplar tuza olish;
- xotiradagi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olish;
- namunalar asosida dialoglar tuza olish;
- rasmni yozma tasvirlab bera olish;
- qisqa xabar, xat yoza olish;
- tili o‘rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib, yozma shaklda istaklar bildira olish.

A2+

- kichik esse (insho) yoza olish.

A2/A2+/1 (VI sinf)**Tinglab tushunish****A2**

- audiomatndan muhim joylarini belgilab qo‘ya olish;
- ma’lumotni audiomatndan ajratib olish uchun tinglash;
- ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish uchun matnni tinglash;
- aktiv va passiv so‘zlardan iborat matndagi xabarlarni tinglab, mazmunini tushuna olish;
- audiomatnning mazmunini to‘liq tushunish.

A2+

- 140 tagacha so‘zdan iborat audiomatnlarni tinglab tushunish;
- audiomatn asosida kichik guruhlarda muhokama qila olish.

Gapirish**A2**

- o‘qigan yoki tinglagan matnlar yuzasidan savollarga javob berish, mazmunini gapirib berish;
- etiketni ifodalovshi dialog, so‘rov-dialog (intervyu), dialog suhbatda ishtirok etish;
- qisqa suhbatlarda o‘z fikr va munosabatlarini mantiqan to‘g‘ri ifoda etish;
- guruhlarda, juftliklarda savollar bera olish va o‘z fikrini bildira olish.
- suhbatdoshiga mavzu yuzasidan o‘z fikrini qisqacha gapirib bera olish.

A2+

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida qisqa ma’lumot berish;
- rasm asosida matnlar tuza olish.

O‘qish**A2**

- yangi so‘zlarning ma’nosini tushunish uchun ikki tilli lug‘at yoki darslik lug‘atidan foydalana olish;
- qisqa hikoyalarni, mustaqil o‘qiy olish va berilgan topshiriqni bajara olish;
- matnni umumiylashtirish uchun o‘qish;
- ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish uchun matnni o‘qiy olish;
- bosma yoki qo‘lyozma matnlarni o‘qib, mazmunini tushuna olish;
- matndan ma’lumotni ajratib olish uchun o‘qish;
- matnnining asosiy mazmuni va tafsilotini anglay olish;
- kontekst yoki tayanch so‘zlardan foydalangan holda matn mazmunini tushunish;
- bir daqiqada 60-70 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A2+

- bir daqiqada 70-80 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- o‘qilgan matn asosida mashqlar bajara olish.

Yozuv**A2**

- mavzuga doir kichik matnlarni yoddan yoza olish;
- mavzular doirasida diktant yoza olish;
- gapda punktuatsion belgilarni qo‘llay olish;
- gaplarni to‘g‘ri ko‘chirib yoza olish;
- tugallanmagan gaplarni o‘rganilgan grammatik hodisalar yoki mazmunan mos so‘zlar bilan to‘ldirib, yakunlay olish;
- o‘rganilgan grammatik qoida yoki namunalar asosida sodda gaplar yoza olish;
- tili o‘rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foy-dalanib, yozma ravishda istaklar bildira olish;
- so‘zning to‘g‘ri yozilganligini tekshirishda lug‘atlardan foydalana olish;
- o‘qigan yoki tinglagan matn asosida muayyan vazifani yozma bajarish;
- mavzular doirasida dialog tuza olish;
- oddiy jadvallar tuzish, yoki to‘ldirish;
- matnlarning qisqacha bayonini yozma shaklda ifodalash;
- do‘siga xat, sodda xabarlarni yoza olish;
- namunalar asosida dialoglar tuza olish.

A2+

- bayram va tug‘ilgan kun tabriknomalarini yoza olish;
- taklifnomalarini yoza olish;
- o‘rta hajmdagi esse (insho) yoza olish.

A2/A2+/2 (VII sinf)

Tinglab tushunish

A2

- qishloq va shahar (manzil), sog‘liq, sport, kiyim-bosh va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi mavzulardagi matnlarni tinglab tushuna olish;
- o‘tgan va kelasi zamondagi voqealarni yorituvchi hikoyalardan parchalar, qisqa tasviriy hikoyalarni tinglab tushuna olish.
- ayrim notanish so‘zlarni o‘z ichiga olgan matnlarni tinglab tushuna olish;
- mavzu doirasidagi matndan batafsil ma’lumot olish uchun tinglash;
- berilgan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish uchun tinglash.

A2+

- so‘zlarni izohlar orqali tushuna olish;
- 150 tagacha so‘zdan iborat audiomatnlarni tinglab tushunish.

Gapirish

A2

- qishloq va shahar, sog‘liq, sport, kiyim-bosh va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi mavzulardagi dialog va monologlarda ishtirok eta olish;
- guruh va juftliklarda kommunikativ vazifalarni bajarishda fikr almashish;
- mavzular doirasida bahs-munozaraga kirisha olish;
- mavzu doirasida voqealarni gapirib bera olish;
- o‘tgan va kelasi zamondagi voqealarni gapirib berish;
- kundalik ish faoliyatga oid muloqotga kirisha olish va suhbatda davomiylikni saqlab tura olish.

A2+

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida kengroq ma’lumot berish;
- mashhur shaxslar haqida qisqa ma’lumot bera olish;

O‘qish**A2**

- qishloq va shahar, sog‘liq, sport, kiyim-bosh va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi mavzulardagi matnlarni o‘qib tushuna olish;
- yangi so‘zlar ma’nosini ochishda lug‘atdan foydalana olish;
- yozma (grafik) materiallarni o‘qib, mazmunini tushuna olish;
- mustaqil o‘qishga mo‘ljallangan materiallarni tushuna olish;
- o‘qilgan matn mazmunini qisqacha bayon etish;
- matnni umumiylashtirish uchun o‘qish;
- qiziqarli ma’lumotni matndan ajratib olish uchun o‘qish;
- ko‘ngilochar matnlarni o‘qib, axborot olish;
- bir daqiqada 70-80 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A2+

- bir daqiqada 80-90 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- notanish so‘zlar ishtirok etgan matn asosida mashqlar bajara olish.

Yozuv**A2**

- qishloq va shahar, sog‘liq, sport, kiyim-bosh va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish kabi mavzulardagi matnlar asosida fikrlarni yozma ifoda qilish;
- tugallanmagan gaplarni mazmunan mos so‘zlar bilan to‘ldirish va ularni yakunlab yozish;
- o‘qigan yoki tinglagan matnlar asosida muayyan bir vazifani yozma bajara olish;
- yangi kontekstda so‘z tartibini to‘g‘ri qo‘llay olish;
- tinish belgilari va til qurilmalaridan to‘g‘ri foydalangan holda fikrni yozma ifoda eta olish;
- tili o‘rganilayotgan mamlakat nutqiy etiket formulalaridan foydalanib, istaklar bildira olish, takliflar yoza olish;
- tasviriy xarakterdagi qisqa matnlarni yoza olish;
- matndagi ma’lumotlarni turkumlarga ajratib yoza olish;
- qisqa hisobotlar yoza olish;
- namunalar asosida dialoglar tuza olish;
- turli mazmundagi xatlar yoza olish;
- kundalik ish faoliyatida kerak bo‘lgan so‘zlar orqali qisqa xabarlar yoza olish.

A2+

- o‘rtalama hajmdagi esse (insho) yoza olish;
- rasm asosida bayon yoza olish.

A2/A2+/2 (VIII sinf)**Tinglab tushunish****A2**

- tabiiy sharoitdagi nutq xususiyatlari (ikkilanish, gapni boshlashda qo‘llaniladigan

chet tildagi “xo‘p, yaxshi, demak“ kirish so‘zlari va h.k.) ishtirok etgan dialog va monologlarni tinglab tushuna olish;

- bayram va urf-odatlar, atrof-muhit muammolari, ommaviy axborot vositalari kabi mavzulardagi matnlarni tinglab tushunish;
- matnni tinglab, asosiy mazmunini tushuna olish;
- kerakli ma’lumotni matndan ajratib olish uchun tinglash;
- kam miqdordagi notanish so‘zlarni o‘z ichiga olgan matnlarni tinglab tushuna olish;
- o‘tgan, hozirgi va kelasi zamondagi voqealar tasvirlangan hikoyalar mazmunini tinglab tushuna olish;
- matn asosiy g‘oyasini gapirib berish uchun tinglab tushunish.

A2+

- audiomaterial asosida bayon yoza olish;
- matnni tinglab, aniq ma’lumotni tushuna olish;

Gapirish

A2

- bayram va urf-odatlar, atrof-muhit muammolari, ommaviy axborot vositalari kabi mavzularda muloqotga kirisha olish;
- turli holat, guruh va juftliklarda kommunikativ vazifalarni bajarishda fikr almasha olish;
- dasturiy mavzularda bahs-mulohaza yurita olish;
- o‘tgan va kelasi zamonda voqealari-hodisalarini gapirib bera olish;
- mavzular yuzasidan suhbatda qatnashish, o‘z fikr-mulohazalarini tushuntirib bera olish;
- dialog va monolog nutqda ishtirok eta olish.

A2+

- mavzu yuzasidan kichik taqdimotlar bajara olish;
- hikoya va asarlar haqida ma’lumot bera olish.

O‘qish

A2

- bayram va urf-odatlar, atrof-muhit muammolari, ommaviy axborot vositalari kabi mavzulardagi matnlarni o‘qish;
- tasviriy xarakterdagi hikoyalarni o‘qib tushunish;
- mustaqil o‘qishga mo‘ljallangan materiallarni o‘qish;
- murakkab gap va yangi so‘zlarni o‘z ichiga olgan tanish mavzudagi matnlarni o‘qib tushunish;
- matnning asosiy g‘oyasini tushunish uchun o‘qish;
- matndan batafsil ma’lumot olish uchun o‘qish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, elektron lug‘atlardan foydalana olish,
- mustaqil o‘qishga mo‘ljallangan hikoyalarni o‘qish;
- o‘qilgan matn mazmunining qisqacha bayon etish;
- matnni umumiylashtirish ma’lumot olish uchun o‘qish;
- bir daqiqada 80-90 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A2+

- bir daqiqada 90-100 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikrini gapira olish.

Yozuv**A2**

- dasturiy mavzularda fikr-mulohazalarni yozma bayon etish;
- o‘qigan, tinglagan matnlar yoki ko‘rgan-eshitgan voqealar asosida muayyan topshiriqni yozma bajarish;
- o‘rganilgan til qurilmalaridan foydalangan holda fikrni yozma ifoda eta olish;
- yozuvda hozirgi, o‘tgan va kelasi zamon voqealari-hodisalarini tasvirlay olish;
- matndagi ma’lumotlarni turkumlarga ajratib yoza olish;
- qisqa matnlarni yozma tarjima qila olish;
- mavzuni tanishtirish, rivojlantirish va unga xulosa qilish orqali fikrlarni yozma bayon etish;
- tasviriy xarakterdagi matnlarni yoza olish;
- qisqa axborotlar yoza olish;
- berilgan mavzu yuzasidan bayon yoza olish;
- ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplar yoza olish;
- namunalar asosida dialoglar tuza olish;
- tili o‘rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan nutqiy etiket formulalaridan foydalanib, istaklar bildira olish.

A2+

- o‘qigan asari yuzasidan o‘z fikrini ifoda etish;
- mavzular yuzasidan esse (insho) yoza olish.

A2/A2+/3 (IX sinf)**Tinglab tushunish****A2**

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta’lim tizimi, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog‘i, mediata’lim kabi mavzulardagi matnni tinglab tushunish;
- turlarga oid nutqlarni tinglab tushuna olish;
- multimedia, audio va video lavhalarning asosiy mazmunini tushunish;
- matndan batapsil ma’lumot olish uchun tinglab tushunish;
- ma’lumotlarga aniqlik kiritish uchun tinglash;
- notanish so‘zlar bo‘lgan audiomatnni tinglash;
- telefondagagi suhbatni tushunish va savollarga javob berish.

A2+

- audiomatn asosida bahs-munozaralarda ishtiroy eta olish.

Gapirish**A2**

- ommaviy axborot vositalarida berilgan matnlar yuzasidan gapira olish;
- mavzu bo‘yicha bahslarda, taqdimotlarda ijobjiy yoki tanqidiy mazmundagi shaxsiy fikrlarni bayon etish.

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta’lim tizimi, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog‘i, mediata’lim kabi mavzulardagi matnni gapira olish;
- notanish shaxslar bilan muloqot qila olish;
- audio-video, multimedia, fonogramma, ovozli film lavhalari orqali tinglagan matnlarning asosiy mazmunini hikoya qilib bera olish.

A2+

- mavzu asosida taqdimotlar o‘tkaza olish;
- iboralarni ma’nodosh so‘zlar va so‘z birikmalari, iboralarga o‘zgartira olish.

O‘qish

A2

- notanish matnlarning asosiy mazmunini o‘qib tushuna olish;
- olingan ma’lumotlarga aniqlik kiritish uchun matnni o‘qiy olish;
- notanish mavzudagi matnlarni o‘qiy olish;
- internetda berilgan, elektron pochta orqali yuborilgan ma’lumotlarni o‘qiy olish;
- ommaviy axborot vositalari, video va multimedia vositalari orqali film va lavhalardagi matnni o‘qiy olish;
- kerakli ma’lumotlarni matndan ajratib olish malakasiga ega bo‘lish;
- bir daqiqada 100-120 ta so‘z tezligida o‘qiy olish.

A2+

- bir daqiqada 120-130 ta so‘z tezligida o‘qiy olish;
- o‘qilgan matn asosida murakkab mashqlar bajara olish.

Yozuv

A2

- O‘zbekiston va tili o‘rganilayotgan mamlakatlarning davlat, boshqaruv va ta’lim tizimi, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiyot, aloqa tizimi, internet tarmog‘i, mediata’lim kabi mavzulardagi matnni yozma bayon eta olish;
- o‘qigan yoki tinglagan matn mazmunini gapirib berish uchun reja yoki tezis yoza olish;
- tuzilgan reja yoki tezislар mazmunini yozma yoritib bera olish;
- xat (norasmiy), e-mail, SMS, eslatma, xabar, hisobot, maqola va kundaliklarni yozishning usul va shakllarini to‘g‘ri qo‘llay olish;
- o‘tilgan va erkin mavzular asosida diktant, bayon yoza olish;
- kundalik ehtiyojga kerak so‘zlar orqali xabarlar yoza olish, shaxsiy xat yoza olish;
- o‘zgalar fikrlaridan xulosalar chiqarib, o‘z fikrini yoza olish;
- yozilgan ishni tekshirish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni to‘g‘rilab qaytadan yoza olish;
- idrok etilgan matnning mazmunini qisqacha yozish.

A2+

- tarjimai hol yoza olish;
- sodda turdagи so‘rovnomalar to‘ldira olish.

Chet tillardan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan leksik birliklar miqdori

I-IV sinflarda o‘rganiladigan leksik birliklar aktiv (produktiv) o‘zlashtirish uchun mo‘ljallanadi. V-VI sinflarda qo‘sishma passiv (resteptiv) leksika ham o‘rgatila boshlanadi. VII-IX sinflarda o‘qish amaliy maqsad maqomini olishi munosabati bilan passiv leksikani o‘rgatishga e’tibor kuchayadi.

Sinflar	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX
Leksik birliklar									
Aktiv (A1, A2)	150	150	100	100	100	100	100	100	100
Aktiv (A1+, A2+)	150	200	150	150	150	150	150	150	150
Passiv	-	-	-	-	100	100	100	100	100
Potenstial	-	-	+	+	+	+	+	+	+
Jami (A1, A2)	150	300	400	500	700	900	1100	1300	1500
Jami (A1+, A2+)	150	350	500	650	900	1050	1300	1550	1800

Ingliz tili grammatik minimumi

1-sinfda quyidagi grammatik hodisalar leksik usulda (qoida berilmasdan) o‘rganiladi

1-sinf (A1/1)

- “to be” fe’lining hozirgi zamon shakllari (am, is, are): I’m small. My name’s How are you? Is it a pen?
- Maxsus so‘roq gaplar: What’s your name? How old are you? What’s this?
- Oddiy hozirgi zamon (tasdiq va so‘roq gaplar, qisqa javoblar): I’m from Where are you from? Do you like...? Yes I do.
- Kishilik olmoshlari (I, he, she, it, you): I’m six. It’s a pen. She’s a girl. He’s a boy.
- Ko‘rsatish olmoshi: This is a
- Egalik olmoshlari (my, your, his, her): What’s his/her name? His/her name’s My brother’s big.
- “have/has ...” fe’li: I have a ball. She/he has a toy.
- Buyruq mayli: Jump! Go! Touch your nose.
- Shaxssiz topilmas gaplar: What season is it? It’s winter. It’s warm. Is it hot?
- “can” modal fe’li (*qila olmoq ma’nosida*): I can ski. What can you do?
- Otlarning ko‘plik shakli: I have/like peaches.
- How many? (sanaladigan otlar bilan)
- How much? (sanalmaydigan otlar bilan)

2-sinf (A1/A1+/2)

- Hozirgi zamonda “to be” fe’lining (am, is, are) shakllari: I am It is Is it a ...? Yes, it is. / No, it is not. It is not a
- Ko‘rsatish olmoshlari: this, that is this a library? – Yes, it is./ No, it isn’t. What’s that? – That’s a srosodile.
- Kishilik olmoshlari: we, they
- “can” modal fe’li (*biror narsani so‘rab olishda*): Can I have ..., please? Yes,

here you are. No, sorry.

- **Artikl:** a/an, the
- **Otlarda ko‘plik:** a pen – pens, a book–books.
- **Payt predloglari:** at, in, on
- **Oddiy hozirgi zamon:** On Monday I get up at 7. – When do you get up? - I get up at six.
- **O‘rin predloglari:** in, on, under: There is a book on the table. There are pens under the book.
- **I like + doing something:** I like playing tag.
- **There is / are qurilmasi (bo‘lishli shakl):** There is a door. There are four doors.
- **Let’s ...!**
- **Maxsus so‘roq gaplar:** What’s in your bag? Where is my shirt? Where are my jeans?

3-sinf (A1/A1+/2)

- **O‘rin predloglari:** on the right, on the left, between, opposite, next to
- **Payt ravishlari:** usually, sometimes, often, never
- **Bir bo‘g‘inli sifatlarning qiyosiy darajasi:** nice – **nicer**
- **Bir bo‘g‘inli sifatlarning orttirma darajasi:** nice – **the nicest**
- “can” modal fe’li (*ruxsat so‘rashda*): Can I talk to ..., please?
- **Hozirgi davomli zamon fe’lining bo‘lishli shakli:** - They are watching TV.
- **Iboralar:** to go by + transport, to go on + foot
- **Ko‘rsatish olmoshlari:** These/those are

4-sinf (A1/A1+/2)

- **Ko‘p bo‘g‘inli sifatlarning qiyosiy va orttirma darajalari:** beautiful – **more beautiful** – **the most beautiful**
- **Ibora:** I want to be.... .
- “to be” fe’li: o‘tgan zamon shakllari: was/were
- **Oddiy o‘tgan zamon (ayrim to‘g‘ri va noto‘g‘ri fe’llar)**
- **Ibora:** How much...?
- **be going to + noun:** I’m going to Samarkand.
- **Payt ravishlari:** then, before, after
- “Would like” iborasi: I would (=I’d) like.... .
- **Buyruq gap (bo‘lishli va inkor):** Go straight. Stop at the hospital. Turn left. Don’t touch it. Don’t turn left.
- **O‘rin predloglari:** in front of, behind
- **Sanoq sonlar (yuzliklar: 100 – 900)**

5-sinf (A2/A2+/1)

- **Egalik olmoshlari:** my, his, her, its, our, your, their
- **Tartib sonlar (1 – 1000):** one – the first, two – the second, three – the third, four – the fourth, five – the fifth
- **Sanoq sonlar (1 – 1000 ni umumlashtirish)**
- **There is/are qurilmasi (so‘roq va inkor shakllari):** - Is there a...? – Yes, there is/No, there is not. Are there ...? – Yes, there are/No, there are not. How many seasons are there?
- **Maxsus so‘roq gaplar**
- **Bog‘lovshilar:** and, but, then, because, or
- **Ot (birlik va ko‘plik)**
- **Ot yasovchi suffikslar:** -er, - or
- **Gerundiy:** I like reading.
- **Obyekt kelishigidagi kishilik olmoshlari:** me, him, her, it, us, you, them
- **Ravish (sifat+ly):** happily, softly, noisily, loudly
- **“Must” modal fe’li:** We must do our homework.
- **Sifatlar tartibi:** My robot has three large brown green eyes.
- **So‘roq gaplarda so‘z tartibi:** How long can animals live? What do you look like?
- **Otlarda egalik yasovchi qo‘sishimsha:** Anvar’s pet, the boys’ pet.
- **Hozirgi davomli zamon fe’li (barcha shakllari)**

6-sinf (A2/A2+/1)

- **Oddiy o‘tgan zamon** (barcha shakllar, to‘g‘ri va noto‘g‘ri shakllarni umumlashtirish)
- **Ibora:** use something to do something
- **Payt va o‘rin predloglari:** in, on, to, at, on
- **Ibora:** How many/much ... ?
- **Murakkab to‘ldiruvshi:** I want you to help me.
- **Sanoq sonlar (1000 va undan yuqori), yillar**
- **Miqdorni ifodalash:** a box of, a pasket of, a bottle of
- **Iboralar:** Help yourself to some It’s delicious. Would you like some “Please pass me some bread” va “it’s (=it is) very nice”.
- **Should + do something (maslahat berishda):** You should eat a lot of fruit.
- **I would like ... (I’d) to be (to do)) ... I’d like to be a cook.** I’d like two kilos of tomatoes, please.
- **Sanaladigan va sanalmaydigan otlar**
- **Aniq artiklning geografik nomlari.** Daryo, tog‘, ko‘l, okean, dengiz nomlari oldidan qo‘llanilishi.
- **Some** (bo‘lishli gaplarda): There’s some butter. There are some eggs.
Any (so‘roq va inkor gaplarda): Are there any peaches? – Yes, there are some./No, there aren’t any. There isn’t any fruit in the fridge.
- **Each, other:** Watermelons cost 5.000 soums Each.
- **Sifat darajalari** (umumlashtirish)

- **A lot of, many, much, a few, a little.** Don't add much salt. We have a little time.
- **O'tgan davomli zamon (bo'lishli, so'roq va inkor shakllar)**

7-sinf (A2/A2+/2)

- **Hozirgi zamon majhul nisbati:** Ireland is devided into two parts: Northern Ireland and Ireland.
- **Hozirgi tugallangan zamon:** Have you seen the doctor?
- **Noto'g'ri fe'llarning sifatdosh II shakli:** go – gone, take–taken.
- **So/do I. I do too. I don't either. Neither/nor do I.**
- **Tasdiq so'roq gap:** It's lovely, isn't it? – Yes, it is.
- **Faqat ko'plikda ishlatiladigan otlar:** trousers, pants, jeans, glasses . . .
- **Kelasi zamon:** will.
- **So'z yasash:** fe'l + ing = sifat; ot + ot = ot
- **"to be going to + verb"** qurilmasi
- **Iboralar:** Would you like to...? I would (I'd) like to . . . I'd rather...
- **Qiyoslash:** as ... as
- **"un" inkor yasovchi suffiksi:** un+kind=unkind; un+happy=unhappy
- **"re" suffiksi:** re+write= rewrite
- **"too" ravishi**
- **Ibora:** too tired to do something
- **Ibora:** so that
- **Murakkab gaplar (bosh va ergash gaplar):** I think/believe/know that . . .
- **Payt (when), sabab (because) ergash gaplar**
- **Aniqlovchi ergash gaplar:** who/whish/where/when

8-sinf (A2/A2+/2)

- **Tugallangan o'tgan zamon**
- **Istak mayli:** If I were him, I would be worried.
- **Predloglar:** with, in spite of, despite.
- **Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar.**
- **O'tgan zamonda fe'lning majhul nisbati**
- **Modal fe'lli majhul nisbat:** can/could/must/should/may/might be done
- **So'z yasash:** fe'l + tion = ot. Celebrate + tion = celebration
- **Iboralar:** It's important to . . . It is (high) time.... It is necessary . . .

9-sinf (A2/A2+/3)

- **O'rganilgan grammatik hodisalarini umumlashtirish:** Revision
- **Payt ergash gapli qo'shma gaplar**
- **Shart ergash gapli qo'shma gaplar**
- **Zamonlar moslashuvi**
- **Bog'lovshili ergash gaplar:** Who/whish/where/whom/that
- **Ot yasovchi suffikslar:** -sion, -ment, -ance, -cy, -ist

- **Iboralar:** to have/get something done; need doing
- **Ibora:** to be worth
- **Iboralar:** I'm good at (with); I'm interested in; I'm fond of; I'm phoning to tell you
- **So‘z yasash:** ot + ot = sifat. Part - time job

Ingliz tili fanidan talaffuz minimumni

Unli tovushlar (20 ta) va undosh tovushlar (24 ta), urg‘u va ohang (intonastiya) talaffuz minimumidan o‘rin oladi. Ayni paytda talaffuzni o‘rgatish mazmuni sifatida o‘quvchilarga muayyan qiyinchilik tug‘diradigan quyidagi fonetik hodisalarga maxsus e’tibor qaratiladi:

- **Unlilar:** qisqa [i ,e, æ, ɔ, u, ʌ]; cho‘ziq [i:, a:, ɔ:, u:, ə:]; diftonglar [ei, ai, ou, iø, εø, au, uø]
- **Undoshlar tizmasi** (consonant clusters): so‘z boshida [sk, sp, st, fl, kl, pl, θr, tw, str, spr ...]; so‘z oxirida [ks, ps, ts, ns, kt, ſt, ſn, tn, tl, nd, dz, gz, lz dn, bl, ld, vd, lts, ndz, nsl, nts, ksts, ldrnz ...]; so‘z o‘rtasida [ntl, ndl, ndm, vnt...]
- **So‘z oxirida jarangli undoshlar** [b, d, g, z, dʒ , ʒ , v]
- **Tovushlar oppozistiyasi:** **qisqa-cho‘ziqlik** [i-i:, ɔ-ɔ :, u-u:, ʌ-ʌ:]; diftonglar [ei-ai, iø-εø, ou-ɔi, uø-u, au-ou] undoshlar [f-p, r-l, vw, θs, θf, ðz, v, d, l, r, w].
 - **Urg‘u:** urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘in; ko‘p bo‘g‘inli so‘zda birlamchi va ikkilamchi urg‘u; fraza urg‘usi; gapda urg‘u.
 - **Intonastiya** (ohang): ko‘tariluvchi va pasayuvchi ohang. Gap turlarida farqlanuvchi intonastiya.

Talaffuz minimumni darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish chog‘ida leksik va grammatik materialarning tanlanishi va taqsimoti bilan bog‘liq holda sinflar bo‘yicha mashqlarda o‘zlashtirishga mo‘ljallanadi.

Ingliz tili fanidan mavzular taqsimoti

T/r	Mavzu nomi	Soat (A1/A1+)
1-sinf (A1/1) 66 soat		
1.	Tanishuv <ul style="list-style-type: none"> - salomlashish madaniyati va turlari (kattalarga, tengdoshlarga); - xayrlashish; - o‘zini tanishtirish, rasmiy yoki norasmiy javob; - yoshi va ona shahri. 	4
2.	Sinfda <ul style="list-style-type: none"> - sinfda ishlataladigan iboralar; - raqamlar. 	4
3.	Oila <ul style="list-style-type: none"> - oila a’zolarining tarkibi; - oila a’zolarining ismlari; - ota-onha haqida. 	4
4.	Mening do‘stim <ul style="list-style-type: none"> - do‘stining ismi va yoshi. 	4
Takrorlash		2
Jami		18
5.	Ranglar <ul style="list-style-type: none"> - ranglarning nomlari. 	2
6.	O‘yinchoqlar <ul style="list-style-type: none"> - o‘yinchoqlarning nomlari va rangi; - o‘zining o‘yinchoqlarini tanishtirish. 	2
7.	Tana a’zolari <ul style="list-style-type: none"> - tana a’zolari va ularning nomlari. 	4
8.	Fasllar <ul style="list-style-type: none"> - fasllar nomlari; - ranglar; - fasllar ob-havosi. 	4
Takrorlash		2
Jami		14

9.	Atrofimizdagি olam - tabiat hodisalari; - faoliyatlar.	4
10.	Hayvonlar - uy hayvonlarining nomlari; - yovvoyi hayvonlarning nomlari.	8
11.	Sabzavotlar - sabzavotlarning nomlari; - ularning ranglari va sonlari.	4
Takrorlash		2
Jami		18
12.	Mevalar - mevalarning nomlari; - ularning ranglari va sonlari.	4
13.	Men nima qila olaman? - o‘qituvchining ko‘rsatmalari va ularni bajarish; - darsda nima qila olishni ayta bilish; - raqamlar.	4
14.	Ertak qahramonlari - o‘zi yoqtirgan ertak nomini aytish; - o‘zi yoqtirgan ertak qahramoni nomini aytish; - o‘zi yoqtirgan ertak qahramonining ba’zi belgilarini aytish.	4
Takrorlash		4
Jami		16
Umumiy		66

2-sinf (A1/1) 68 soat (A1+/1) 102 soat		
T/r	Mavzu nomi	Soat (A1/A1+)
1.	O‘zim haqimda - 1-sinfda o‘rganilgan materiallarni takrorlash; - o‘zi va do‘stining ismi; - ingliz alifbosi.	4
	A1+ - o‘zi, do‘sti va oila a’zolari haqida ma’lumot berish; - yashash joyi haqida ma’lumot berish; - ingliz alifbosi.	2
2.	Hafta kunlari - 1-sinfda o‘rganilgan materiallarni takrorlash; - hafta kunlari; - raqamlar; - ingliz alifbosi.	4
	A1+	2

	<ul style="list-style-type: none"> - hafta kunlari va raqamlar; - ingliz alifbosi. 	
3.	<p>Mening bo'sh vaqtim</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim o'yinlar va sport turlari; - ingliz alifbosi. 	4
